

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH
BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI

**BARCHA YO'NALISHLAR
UCHUN**

**“INTELLEKTUAL MULK
OBYEKTLARINING HUQUQIY
MUHOFAZASI”
moduli bo'yicha**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRALARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**BARCHA YO'NALISHLAR
UCHUN**

**“INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINING HUQUQIY
MUHOFAZASI”
moduli bo'yicha**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2022

Mazkur o‘quv – uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 25 dekabrdagi -sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: TDTU “Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kafedrasi professori, t.f.n.,
A.Turg‘unboyev.

TDTU “Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kafedrasi dots., (PhD) **X.A.Usmanova**

Taqrizchi: TDTU “EEE” kafedrasi professori, t.f.d. **M.Q. Bobojanov**

Ishchi o‘quv dastur Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2021 yil 29 dekabrdagi 4-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, foydalanishga tavsiya etildi.

MUNDARIJA

| | | |
|-------------|--|-----------|
| I. | ISHCHI DASTUR..... | 5 |
| II. | MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL | |
| | TA'LIM METODLARI..... | 11 |
| III. | NAZARIY MATERIALLAR..... | 15 |
| IV. | AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI..... | 30 |
| V. | GLOSSARIY..... | 57 |
| VI. | FOYDALANGAN ADABIYOTLAR..... | 61 |

I. ИШЧИ ДАСТУР

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdan tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori hamda 2021 yil 28 yanvardagi “Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4965-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ushbu ishchi dasturda xozirgi kunda dolzarb bo‘lgan masalalar - intellektual mulk obyektlari: ixtiro turlari va uning noan’anaviy obyektlari; sanoat namunalari va mahsulot belgilari; patent axboroti; xalqaro patent tasnifi va jahon patent tizimlari; intellektual mulkni litsenziyalash; litsenziya bitimlari va to‘lovlarini va ularidan foydalanish bo‘yicha asosiy masalalari ko‘rib chiqilgan.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulni o‘qitishdan maqsad - tinglovchilarda ilmiy-texnikaviy rivojlanishda patent tizimining o‘rnini, xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlikning patent-huquqiy aspektlarini hamda O‘zbekiston va boshqa davlatlardagi amalda bo‘lgan patent-litsenzion qonunlarining asoslarini, patent hujjatlari bilan

ishlashni, axborot qidiruvlarini olib borish usullari, uslublarini bilishi, litsenziyalash asoslari bilan bog'lik bo'lgan meyoriy va ilmiy - texnik hujjatlar va adabiyotlar bilan ishlash tajribasiga ega bo'lish hamda ulardan foydalanish bo'yicha yo'naliш profiliga mos bilim ko'nikma va malaka shakillantirishdir.

Modulning vazifasi – tinglovchilarga olgan nazariy bilimlarini amaliy jarayonga qo'llash, ularning obyektlarini va usullarini aniqlash masalalariga muammoli yondoshish va tadqiqot olib borishni shakllantirish, turli patentshunoslik va litsenziyalash sohasidagi meyoriy va rasmiy hujjatlar bilan tanishish va ishlash, muayyan faoliyat va jarayonda intellektual mulk mahsulotlarining huquqiy muhofazasi sohasida meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish va qo'llashni o'rgatish mazmuni, mohiyati haqida bilimlar berishdan iboratdir.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

"Intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi" modulni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- intellektual mulk huquqi va jamiyatning rivojlanishi. Intellektual mulk obyektlarini tasniflash. Asosiy tushuncha va atamalar. Intellektual mulk obyektlarini muhofazalash tamoyillari. IM obyektlarini muxofazalash sohasida O'zbekiston qonunchiligi. Ilmiy kashfiyat va EHM uchun dastur va ma'lumotlar bazasi haqida tushunchalar;

- ixtiro, asosiy tushunchalar va ularning turlari. Yangi ixtiro yaratish usullari. Ixtiroga patent berish uchun talabnomalar hujjatlari. Foydali model. Sanoat namunalari. Tovar belgilari. Ushbu obyektlarga talabnomalar hujjatlari;

- xalkaro patent tasnifi. Patent axboroti. Patent tadqiqotlari. Ma'lumotlar bazalari bilan ishlash. Intellektual mulkni boshqarish va korxona siyosati. litsenziyalash, litsenziya obyektlari va tartiblari bo'yicha ***bilimlarga ega bo'lishi kerak.***

Tinglovchi:

- intellektual mulk obyektlarini tasniflash;
- intellektual mulk obyektlarini muhofazalash tamoyillari;
- ixtiroga patent berish uchun talabnomalarini rasmiylashtirish
ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Tinglovchi:

- yangi ixtiro yaratish usullari. Ixtiroga patent berish uchun talabnomalarini, noan’naviy intellektual mulk obyektlari bilan amalda ishlay bilish,
- foydali model, sanoat namunalari IMOLari, EHM uchun dasturni amaliyotda qo‘llash ***malakasiga ega bo‘lishi kerak.***

Tinglovchi:

- xorijiiy davlatlarda intellektual mulk obyektlarini patentlash ishlarini tashkil qilish;
- innovatsion intellektual mulk obyektlarini amaliyotga joriy qilish;
- intellektual mulk obyektlarini litsenziyalash hujjatlarini rasmiylashtirish;
- intellektual mulk obyektlarining huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy nizomlarini aniqlash ***kompetensiyalara ega bo‘lishi lozim.***

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlardan, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kolokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi” moduli o‘quv rejadagi quyidagi modullar bilan bog‘liq: ” Mahsulot va xizmatlarda halqaro talablar asosida standartlarni ishlab chiqish, ekspertiza qilish va meyoriy nazorat”, “Zamonaviy o‘lchash, sinash, nazorat qilish usullari va vositalari tahlili”.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

“Intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi” moduli xalq xo‘jaligining, sanoatning barcha tarmoqlari uchun o‘ta zarur bo‘lgan intellektual mulk obyektlarini tasniflash, intellektual mulk obyektlarini muhofazalash sohasida O‘zbekiston qonunchiligi, yangi intellektual mulk obyektlarini yaratish usullari, xalkaro patent tasnifi, jahon patent tizimlari, intellektual mulk obyektlarini litsenziyalash kabi masalalar xususida yetarli va zarur ma’lumotlarga ega bo‘lgan yuqori sifatli kadrlarni tayyorlashda muhim o‘rin egallaydi.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

| № | Modul mavzulari | Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat | | | |
|----|---|---|----------------|--------------------------|---------------------------|
| | | Jami | Nazariy | Amaliy mashg‘ulot | Ko‘chma mashg‘ulot |
| 1. | Intellektual mulk obektlari va ularning qonuniy asoslari. Intellektual mulk obektlarini litsenziyalash. | 2 | 2 | | |
| 2. | Ilmiy kashfiyotlar, EHM uchun dasturlar. Ixtiroga patent berish uchun talabnama hujatlari. | 2 | | 2 | |
| 3 | Foydali model, sanoat namunalari, tovar belgilari. Patent axboroti. Xalqaro patent tasnifi. | 2 | | 2 | |
| | Жами | 6 | 2 | 4 | - |

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Intellektual multk obyektlari va ularning qonuniy asoslari.

Intellektual multk obyektlarini litsenziyalash.

“Intellektual multk” tushunchasi. Intellektual multk obyektlarini tasniflash. Intellektual multk obyektlarini muhofazalash sohasida O‘zbekiston qonunchiligi. Muhofaza hujjatlarining turlari va muddatlari. Intellektual multk obyektlarini litsenziyalash, litsenziya turlari.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot: Ilmiy kashfiyotlar, EHM uchun dasturlar. Ixtiroga patent berish uchun talabnama hujjatlari.

Intellektual multk obyektlarini muhofazalash sohasida xalqaro kooperatsiya. Muhofaza hujjatlarining turlari. Ilmiy kashfiyotlar. Kashfiyot obyektlari. Mualiflik huquqining buzilishi. Dasturlar va ma’lumotlar bazalarini ro‘yxatga olish uchun talabnama. Ixtiroga patent berish uchun talabnama hujjatlari.

2-amaliy mashg‘ulot: Foydali model, sanoat namunalarini, tovar belgilari.

Patent axboroti. Xalqaro patent tasnifi.

Foydali model, sanoat namunasi, ularning muhofaza hujjatlari. Tovar belgilari va ularning kelib chiqish joylari, turlari. Ushbu IMOlarining talabnama hujjatlari bilan tanishish. Patent axboroti, xalqaro patent tasnifi.

TA’LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Ta’limni tashkil etish shakllari aniq o‘quv materiali mazmuni ustida ishlayotganda o‘qituvchini tinglovchilar bilan o‘zaro harakatini tartiblashtirishni, yo‘lga qo‘yishni, tizimga keltirishni nazarda tutadi.

Modulni o‘qitish jarayonida quyidagi ta’limning tashkil etish shakllaridan foydalilanadi:

ma’ruza;

amaliy mashg‘ulot.

O‘quv ishini tashkil etish usuliga ko‘ra:

jamoaviy;

guruuhli (kichik guruhlarda, juftlikda);

yakka tartibda.

Jamoaviy ishlash – Bunda o‘qituvchi guruhlarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o‘quv maqsadiga erishish uchun o‘zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

Guruhlarda ishlash – bu o‘quv topshirig‘ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o‘quv jarayonida kichik guruxlarda ishlashda (3 tadan – 7 tagacha ishtirokchi) faol rol o‘ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta’limni tashkil etish shaklidir. O‘qitish metodiga ko‘ra guruhni kichik guruhlarga, juftliklarga va guruhlarora shaklga bo‘lish mumkin. Bir turdagи guruhli ish o‘quv guruhlari uchun bir turdagи topshiriq bajarishni nazarda tutadi. Tabaqalashgan guruhli ish guruhlarda turli topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.

Yakka tartibdagi shaklda - har bir ta’lim oluvchiga alohida- alohida mustaqil vazifalar beriladi, vazifaning bajarilishi nazorat qilinadi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“Venn diagramma” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.


Metodni amalga oshirish tartibi:

ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;

juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yoxud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Intellektual mulk obyektlari (IMO) va ularning turlari bo‘yicha



“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi»— inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

| Ish bosqichlari | Faoliyat shakli va mazmuni |
|--|--|
| 1-bosqich: Keys va uning axborot ta’mnoti bilan tanishtirish | <ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagи audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash |
| 2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash | <ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash |
| 3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish | <ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘sislarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash |
| 4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot. | <ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish |

Keys. Foydali modelning traditsion usulda qabul qilingan ta’rifi

qurilmalarga kiritilgan o‘zgartirishlardan boshlab hozirda usullar va ularga kiritilgan o‘zgartirishlar tushunchalariga borib taqaladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

-Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhlarda).

- Intellektual mulk obyektlarining rivojlanish bosqichlarini Patentshunoslik fani nuqtai nazaridan tushuntirib bering?

“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ular dan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi.

Shundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘sib chiqilib, umumiyligini yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘siladi va umumiyligini yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiyligini yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzusini bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

NATIJANI BAHOLASH.

| | |
|----------------------------|-------------|
| 8 ta to‘g‘ri javob uchun | “A’lo” |
| 6-7 ta to‘g‘ri javob uchun | “Yaxshi” |
| 4-5 ta to‘g‘ri javob uchun | “Qoniqarli” |

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: Intellektual multk obyektlari va ularning qonuniy asoslari.

Intellektual multk obyektlarini litsenziyalash.

Reja:

- 1.1. “Intellektual multk” tushunchasi. Intellektual multk obyektlarini tasniflash.
- 1.2. Intellektual multk obyektlarini muhofazalash sohasida O‘zbekiston qonunchiligi. Muhofaza hujjatlarining turlari va muddatlari.
- 1.3. Intellektual multk obyektlarini litsenziyalash, litsenziya turlari.

Tayanch so‘z va iboralar: Intellektual multk, ixtiro, ixtiro turlari, sanoat mulki, ixtiroga patent, foydali model, sanoat namunasi, tovar belgisi, xalqaro patent tasnifi, patent axborotlari.

1.1. Kirish. “Intellektual multk” tushunchasi. Intellektual multk obyektlarini tasniflash.

“Intellektual multk obyektlarining huquqiy muhofazasi” modulini o‘qitishdan maqsad – tinglovchilaarda ilmiy-texnikaviy, hamda ilm talab texnologiyalarni yaratish va ishlab chiqarishga tatbiq etish muammolarida fizik va yuridik shaxslarning o‘zaro munosabat asoslari, intellektual multk huquqlarining yuzaga kelish tartiblari, ularning hajmini aniqlash va intellektual mehnat mahsulotlariga bo‘lgan huquqlarni boshqa tomonga uzatish tartib qoidalari asoslarini o‘rganish va olingan bilimlardan foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilish.

Odamzot o‘z tabiatiga ko‘ra jismoniy jihatdan eng mukammal mavjudod emas, lekin insonda eng kuchli imtiyoz – uning intellekti mavjud.

Intellekt – insonni hayvonat dunyosidan ajratib turadigan asosiy belgi bo‘lib rivojlanishni sifat jihatidan yangi pog‘onaga ko‘taradi. Intellekt so‘zi lotincha intellectus so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, inson aqli, ongi, fikrlash qobiliyatini bildiradi. Inson hayotining maqsadi – eng yaxshi narsalarga intilishdir. Ibtidoiy tuzumdan, ya’ni ilk mehnat qurollari yaratilgandan boshlab inson har doim o‘zining turmush tarzini yaxshilash, o‘z ijodiy salohiyatini oshirish yo‘llarini

tinimsiz izlab kelgan. Shuning uchun ham qadim zamonlardan insoniyat jamiyatida birinchi olimlar, ixtirochilar, rassomlar va musiqachilar paydo bo‘lgan. Ular insonlar hayoti va turmushini yengillashtiruvchi asbob-uskunalar ixtiro qilishgan, chorvachilik va qishloq xo‘jaligini o‘zlashtirib, atrof muhitdan himoyalanish uchun uylar qurishgan, yuklarni tashish vositalarini o‘ylab topib, dengizdan suzish uchun kemasozlik bilan shug‘ullanishgan va bu bilan texnik, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotni ta’minlab kelishgan.

Intellektual faoliyat insoniyat jamiyati rivojlanishining asosiy sababidir. Intellektual faoliyatning eng muhim turlari fan, san’at va texnik ijodiyot, xalqlar va millatlar, davlat va sivilizatsiyalar rivojining doimiy yo‘ldoshidir.

Insoniyat jamiyati o‘z boshidan quzdorlik, feodalizm, kapitalizm, sotsializmni kechirdi. XXI asrning boshida, asosiy rivojlantiruvchi kuchi raqobat bo‘lgan bozor iqtisodiy tizim ekanligi tan olindi.

Hamma vaqt ham raqobat kurashida kim intellektual imkoniyatlar va intellektual faoliyat natijalaridan unumli foydalana olsa faqat o‘sha muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

Bundan shunday mantiqiy xulosa chiqadiki, insonning bilim olish, ixtiro qilishga tabiiy intilishi va ijodi mahsulidan iqtisodiy samara olinishi bir-biriga mos kelgandagina u o‘zining ijodiy salohiyatidan oqilona foydalana oladi, shu bois doimiy izlanishdan manfaatdor bo‘ladi.

Faqat mulk egasigma o‘z mulkidan yuqori darajada samarali va oqilona foydalanib, uni boshqara oladi. Bunday iqtisodiy rag‘batlantirishning eng maqbul usuli shundan iboratki, inson o‘z intellektual salohiyati natijalariga mulkchilik huquqiga ega bo‘lishi, ya’ni intellektual mulkka egalik qilishi kerak. Zero undan boshqa hech kim bu natjalarga xo‘jayinlik qila olmasin. Faqat uning o‘ziga intellektual ijodi natijalaridan o‘z istagicha foydalanish va boshqa shaxslarga sotish borasida mutloq huquqqa ega bo‘ladi.

Shu yerda biz hozirgi vaqtda jahondagi eng muhim tushunchalardan biri hisoblangan intellektual mulk tushunchasiga duch kelamiz. Xo‘sh intellektual mulkning o‘zi nima va uni qanday o‘lchash mumkin?

Eng avvalo intellektual mulk intellektual faoliyat natijasidir. Barcha intellektual faoliyat ham intellektual mulk bo‘la olmasligi aniq. Inson fikrlaydi, uning xayolida behisob g‘oyalar, loyihalar tug‘iladi, lekin ularning hammasi ham hayotda amalga oshmay qolib ketadi. Faqat boshqalar tomonidan obyektiv ravishda qabul qilinadigan, ya’ni o‘zining muayyan chegaralariga ega bo‘lgan g‘oya va fikrlargina mulk bo‘la olishi ravshandir.

Intellektual faoliyatning keyinchalik qandaydir biror-bir obyektiv (moddiy) shaklda ifodalana oladigan natijalarigina intellektual mulk bo‘ladi deb aytish mumkin.

Bunda iqtisodiy rivojlanishdan manfaatdor davlatning asosiy vazifasi har bir kishining o‘z intellektual mulkiga egalik qilish va undan foydalanish huquqi ishonchli muhofazalanadigan tizimni ta’minalashdan iborat.

Yana bir bor ta’kidlab o‘tish lozimki, intellektual mulkning o‘ziga xos xususiyati o‘z egalariga foyda keltirishdan iborat, demak, mulk egalarining o‘z mulkiga mutloq huquqi muhofazalangan holdagina butun jamiyat foydasiga xizmat qila oladi Xulosa shuki, intellektual mulk huquqlariga rioya qilmasdan turib XXI asrda ilmiy - texnikaning rivojlanishiga keng yo‘l ochilmaydi.

Lekin intellektual mulk huquqlariga rioya etish bilan masala oxirigacha hal bo‘lmaydi. Jahonda nohalol raqobat kurashi tobora avj olib borayotgani kuzatilmoqda.

Har bir davlat nohalol raqobat kurashning oldini olish uchun qanday mexanizmlarni ishga solishi kerak? Tarixdan ma’lumki eng ishonchli mexanizm bu huquq bo‘lishi mumkin, zotan aynan huquqiy mexanizmlar intellektual mulkni muhofazalashga ishonchli va madaniy yondashuvni ta’minalaydi.

Lekin davlat tomonidan kafolatlanadigan ishonchli muhofaza bu masalaning bir tomoni xolos. Xalqimizning dono iborasi bor - “holva degan bilan og‘iz chuchimaydi”. Uning muhim tarkibiy qismi muayyan kishilarning o‘z huquqlarini bilishi va bu huquqlardan amaliyotda foydalana olishidir.

Bugungi kunda O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi uchun istalgan kasbdagi har bir ijodkor kishi kelajakda o‘zining intellektual mulkidan samarali

foydalinish yo‘llarini aniq tasavvur etishi juda muhimdir.

Intellektual mulk obyektlari (IMO)ni tasniflash. Asosiy tushuncha va atamalar. Intellektual mulk obyektlarini muhofazalash tamoyillari. Intellektual faoliyat odatda juda ko‘p qirrali bo‘lib keng miqyosda o‘zgarib turishi mumkin. Fan, san’at, texnik ijodiyot – bularning barchasi intellektual mehnat turlaridir.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) quydagilarni haqli ravishda o‘zining shiori deb e’lon qildi: Insoniyat dahosi jami san’at asarlari va ixtirolarning manbaidir. Bu asarlar insonga munosib hayot kafolatidir. Barcha turdagи san’at asarlari va ixtirolarni ishonchli himoyalash har bir davlatning burchidir.

Intellektual mulk obyektlarini ko‘rib chiqar ekanmiz, shuni qayd etish mumkinki, intellektual mulkda obyektlarning ikki guruhi alohida ajralib turadi: san’at bilan bog‘liq badiy asarlar va san’at tarmog‘i – xususan yangi buyumlar, tovarlar va texnologiyalarni ishlab chiqish va bozorga taklif etish bilan bog‘liq obyektlar.

Aynan ana shu vaziyatlar XX asrda jahonda umum qabul qilingan xalqaro huquqiy standartlar shakllanishiga olib keldi, shunga muvofiq intellktual mulk o‘z ichiga ikki asosiy huquqlar sohasini oladi:

- mualliflik va turdosh huquqlar, unga muvofiq ilmiy, adabiy, musiqiy, badiiy, fotografiya va audiovizual asarlarga huquqlar, shuningdek fonogramma ishlab chiqaruvchilar va ijrochilar, efir va kabel eshittirishlari tashkilotlarining huquqlari himoya qilinadi;

- sanoat mulki, u ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalari, shuningdek tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilari, tovarlarning kelib chiqish joyi, firma nomlariga huquqlarni o‘z ichiga oladi.

Sanab o‘tilgan barcha muayyan huquqiy muhofaza obyektlari, xususan, badiy asarlar va san’at turlari, ixtiolar, tovar belgilari, EHM uchun dasturlar va hokazolar intellektual mulk obyektlari deb ataladi.

Mualliflik huquqi adabiyot, fan va san’at asarlri o‘zining aniq ifodasini topgan shaklni muhofaza qiladi. Bunday ifodalash shakli so‘z, timsollari, musiqa, surat, uch o‘lchovli predmetlar yoki bunday shakllarning kombinatsiyasi (masalan,

kinofilm yoki teatr pos-tanovkasi, opera) bo‘lishi mumkin. Mualliflik huquqlari asarlarning istalgan turini maxsus ruxsatsiz (muallif roziligidisiz) nusxa ko‘chirish, ko‘paytirish va boshqa usulda qayta tiklashdan muhofazalaydi.

Sanoat mulki, mualliflik huquqidan farqli ravishda bevosita g‘oyani, xususan buyumning turli shakllarda ko‘p marta qayta ishlatalishi mumkin bo‘lgan texnik, badiy va boshqa mohiyatlarni muhofaza qiladi.

Patent davlat nomidan sanoat mulki obyektiga beriladigan va muayyan hududda muayyan vaqt oralig‘ida amal qiladigan muhofaza hujjatidir.

1.2. IMO ni muhofazalash sohasida O‘zbekiston qonunchiligi. Alohida huquqlar. Muhofaza hujjatlarining turlari. Muhofaza muddatlari.

Mamlakatimizning asosiy qonuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. Konstitutsiya O‘zbekiston qonunchiligini ishlab chiqishning asosiy qoidalarini belgilab beradi. Bizning intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofazalash sohasida amaldagi qonunchiligimiz bevosita mulkka egalik va ilmiy-texnik ijodiyot erkinligi huquqlari aks etgan Konstitutsianing IX bo‘limi 36 - va 42 - moddalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Intellektual mulk obyektlarini yaratish, muhofazalash va foydalanish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar fuqarolik huquqi sohasi hisoblanadi va O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

O‘zbekistonda intellektual mulk xuquqlarini muxofazalash bilan bog‘liq masalalarni tartibga soluvchi quydagi qonunlar amal qiladi:

1996 yil 30 avgustda qabul qilingan “Mualliflik huquqlari va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonun;

1994 yil 6 mayda qabul qilingan va 1997 yil 26 dekabrda o‘zgartirilgan “Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi qonun;

1993 yil 7 mayda qabul qilingan va 1997 yil 26 dekabrda o‘zgartirilgan “Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilari to‘g‘risida”gi qonun;

1994 yil 6 mayda qabul qilingan “EHM va ma’lumotlar bazalari uchun

dasturlarni huquqiy muhofazalash to‘g‘risida”gi qonun;

1996 yil 30 avgustda qabul qilingan “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”gi qonun;

2001 yil 12 mayda qabul qilingan “Integral mikrochizmalar topologiyasini huquqiy muhofazalash to‘g‘risida”gi qonunlardir.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq davlatimizda intellektual mulk sohasida vakolatli quyidagi tashkilotlar faoliyat ko‘rsatadi:

Mualliflik huquqlarini himoyalash sohasidagi masalalarni tartibga soluvchi Muallifilik huquqlari bo‘yicha agentlik;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi, uning vazifasi sanoat mulki obyektlarini muhofazalash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishdan iborat.

Muallifga shuningdek mualliflik nomi huquqi ham berilgan bo‘lib, unga muvofiq muallif o‘z obyektiga o‘zining nomi yoki boshqa nomni berishi huquqiga ega.

Intellektual mulk obyektlariga mulkiy huquqlar fuqaro yoki yuridik shaxsning shu obyektga alohida huquqlaridir. Faqat alohida huquqlar egasi intellektual mulk obyektidan boshqa shaxslar foydalanishiga ruxsat berishi yoki man qilishi mumkin.

Alohida huquqlar faqat qonunda ko‘zda tutilgan hollarda va faqat intellektual mulk obyektlaridan meyorida foydalanishga hamda uning egasining qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilmagan taqdirdagina cheklanishi mumkin.

Alohida huquqlar quyidagi hollarda cheklanishi mumkin:

O‘zbekistonda muhofaza qilinadigan ixtiro, foydali modellar, sanoat namunalari tarkibidagi qurilmalarni boshqa davlat, Parij konvensiyasi ishtirokchisining transport vositasida, bu transport vositasi vaqtincha yoki tasodifan O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lganda qo‘llanish, bunda bu qurilmalar faqat shu vosita ehtiyojlari uchungina foydalaniishi shart;

Tarkibida patentlangan obyektlar bo‘lgan vositalar ustida ilmiy tadqiqot yoki tajribalar o‘tkazish;

Tabiiy ofatlar, halokatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda hollarda tarkibida patentlangan obyektlar bo‘lgan vositalarni qo‘llanish. Vazirlar Mahkamasi milliy xavfsizlik manfaatlari yo‘lida patentlangan obyektlardan foydalanish to‘g‘risida patent egasining roziliginini olmasdan turib qaror qabul qiladi, lekin bunday hollarda obe’ktidan foydalanilgani uchun unga tegishli tovon to‘lanadi;

Tarkibida patentlangan obyektlar bo‘lgan vositalarni, agar bu vositalar qonuniy yo‘l bilan xo‘jalik aylanmasiga kiritilgan bo‘lsa, qo‘llanish (masalan, patent egasining o‘zi yoki uning litsenziyasi bo‘yicha)

Vositalarni hech qanday daromad olmasdan shaxsiy maqsadlarda qo‘llanish;

Dorixonalarda shifokor retsepi bo‘yicha dorilarni bir marta taylorlash.

Ixtiroga patent – ixtironing ustuvorlik sanasidan boshlab yigirma yil mobaynida amal qiladi, mohiyati bo‘yicha ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi;

Ixtiroga dastlabki patent (2002 yil oktabr oyigacha) – dastlabki ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi va ustuvorlik sanasidan boshlab 5 yil mobaynida amal qilgan. Talabnama beruvchining mohiyati bo‘yicha ekspertiza o‘tkazish to‘g‘risidagi iltimosiga ko‘ra patentga aylantirilishi mumkin;

Sanoat namunasiga patent – mohiyati bo‘yicha ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi va ustuvorlik sanasidan boshlab 10 yil mobaynida amal qiladi, patent egasining iltimosi bilan amal qilish muddatini yana 5 yilga uzaytirish imkoniyatini saqlab qoladi;

Sanoat namunasiga dastlabki patent (2002 yil oktabr oyigacha)– Dastlabki ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi va ustuvorlik sanasidan boshlab 5 yil mobaynida amal qiladi. Dastlabki patent egasi iltimosiga ko‘ra patentga aylantirilishi mumkin.

Foydali modelga patent – dastlabki ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi va ustuvorlik sanasidan boshlab besh yil mobaynida amal qiladi va talabnama beruvchining iltimosiga ko‘ra yana 3 yilga uzaytirilishi mumkin.

Tovar belgisiga guvohnoma - ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi va

ustuvorlik sanasidan boshlab 10 yil mobaynida amal qiladi va har safar 10 yilga uzaytirish imkoniyatini saqlab qoladi.

Agar obyekt patentga layoqatlilik mezonlariga mos bo'lsa, u tegishlicha ixtiro, foydali model, sanoat namunasi deb tan olinadi. Qonunga muvofiq ko'rsatilgan obyektlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan:

Ixtiolar uchun – uning yangiligi, ixtiro darajasi va sanoatda qo'llanishi;

Foydali model uchun – uning yangiligi va sanoatda qo'llanilishi;

Sanoat namunasi uchun – uning yangiligi, o'ziga xosligi va sanoatda qo'llanilishi.

Patent ekspertizasini o'tkazish vaqtida foydalaniladigan eng muhim tushuncha texnika darajasi tushunchasidir. Texnika darajasi o'z ichiga ixtironing ustuvorlik sanasigacha jahonda barcha uchun ma'lum bo'lgan va barcha foydalanadigan ma'lumotlarni oladi.

Dastlabki ekspertizaning mohiyat jihatidan ekspertizadan farqi eng avvalo shundaki, dastlabki ekspertiza vaqtida talabnama berilgan obyektning (ixtiro, foydali model) mahalliy yangilik talablariga muvofiqligi tekshiriladi, ya'ni patent ekspertlari faqat O'zbekistonidagi mavjud patent hujjatlarini tekshiradilar, mohiyat jihatidan ekspertizada esa obyektning jahon texnika darajasiga muvofiqligi tekshiriladi. Patent idorasi ma'lumotlar rasmiy ravishda chop etilgandan so'ng uch oy o'tgach patent egasiga (yoki tovar belgisi egasiga) muhofaza hujjati, tegishlicha patent yoki guvohnoma beradi. Patent yoki guvohnoma O'zbekiston Respublikasi nomidan beriladi va IMA (Patent idorasi) rahbari tomonidan imzolanadi. Shuni qayd etib o'tish kerakki, hamma vaqt bitta obyektga faqat bitta muhofaza hujjati (patent yoki guvohnoma) beriladi. Agar patent egasi bir nechta bo'lsa (masalan, ikki firma yoki ikki hammuallif) ular bitta patent oladilar.

Qayd etib o'tamizki, keyinchalik patent egasi patentni kuchda saqlab turish uchun muntazam ravishda boj to'lab turishlari shart, boj to'lamaslik muhofaza hujjatining amal qilishi to'xtashiga olib kelishi mumkin. Patent quyidagi hollarda ham amal qilishdan to'xtatilishi mumkin:

patentning amal qilish muddati tugagach;

patent, dastlabki patent yoki tovar belgisining haqiqiy emasligi uchinchi tomonning davo arizasi bilan sud orqali tasdiqlanganda;
patent egasining IMA ga bergan arizasi asosida.

Agar patent yoki guvohnomaning amal qilishi muddatidan ilgari to‘xtatilsa, bu haqidagi ma’lumot IMA ning “Rasmiy axborotnoma” byulletenida chop etiladi. O‘zbekiston qonunchiligi bo‘yicha xorij fuqarolari va yuridik shaxslari bevosita talabnoma berish huquqiga ega emas. Ular patent olish va uni kuchda saqlab turish uchun ishlarini O‘zbekistonning patent bo‘yicha ishonchli vakillari orqali yuritishlari mumkin.

1.3. Intellektual mulk obyektlarini litsenziyalash

Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash sohasidagi qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi: litsenziya - litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so‘zsiz rioya etilgani holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq);

faoliyatning litsenziyalanayotgan turi - O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi uchun litsenziya olish talab qilinadigan faoliyat turi;

litsenziyalash - litsenziya berish to‘g‘risidagi arizani topshirish va ko‘rib chiqish, litsenziyani qayta rasmiylashtirish, litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish, tugatish va bekor qilish jarayoni bilan bog‘liq tadbirlar kompleksi;

litsenziya talablari va shartlari - faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirayotganda litsenziyat tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan, qonun hujjatlarida belgilangan talablar va shartlarning majmui;

litsenziyalovchi organlar - qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar;

litsenziya da‘vogari - litsenziyalovchi organga faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziya berish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat etgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

litsenziat - faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish litsenziyasi bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

litsenziya shartnomasi - faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziatning litsenziya olishi va undan foydalanishi borasidagi litsenziyalovchi organ bilan litsenziya da’vogari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan va ular o‘rtasida tuziladigan shartnoma;

litsenziyalar reyestri - berilgan, to‘xtatib turilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan litsenziyalar, shuningdek amal qilishi tugatilgan litsenziyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan litsenziyalovchi organlarning ma’lumotlar bazalari majmui.

Litsenziyalash sohasini davlat tomonidan tartibga solish. Litsenziyalash sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda litsenziyalovchi organlar (IMA) amalga oshiradi.

Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi, EHM uchun dastur, ma’lumotlar bazalari va integral mikrosxemalar topologiyalari bo‘yicha shartnomalarni rasmiylashtirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005 yil 17 iyunda 1481-son bilan ro‘yxatga olingan “Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutug‘i, tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisiga huquqlarni o‘tkazish to‘g‘risidagi shartnomani va ulardan foydalanish uchun litsenziya shartnomlaarini, integral mikrosemalar topologiyalariga to‘liq yoki qisman huquq o‘tkazish to‘g‘risidagi shartnomalarni, barcha mulkiy huquqlarni boshqa shaxsga o‘tkazish va elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturga, ma’lumotlar bazasiga bo‘lgan mulkiy huquqlarni o‘tkazish to‘g‘risidagi shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish Qoidalarida keltirilgan.

Litsenziya so‘zining lotin tilidagi “licentia” so‘zidan tarjimasi huquq, ruhsatnama ma’nosiga ega. Litsenziyalarni berish butun dunyoda keng tarqalgan bo‘lib, huquqiy va jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning ma’muriy chorasi sifatida qo‘llaniladi. Odatdagidek, litsenziyalar vakolatlangan organlar yoki mutlaq huquq egalari tomonidan biron bir faoliyatning yoki alohida jarayonni amalga oshirish uchun beriladi, masalan, tibbiy amaliyotni amalga

oshirish, tadbirkorlik faoliyat bilan shug‘ullanish va boshqalar. Tashqi iqtisodiy faoliyatda eksport-import jarayonlarini amalga oshirish uchun litsenziyalar berish keng tarqalgan.

Intellektual mulk obyektlaridan foydalanishdagi litsenziyalar o‘z xususiyatiga ega. Ularning davlat organlari tomonidan beriladigan litsenziyalardan farqi shundaki intellektual mulkdan foydalanish litsenziyasi bu tijorat operatsiyasi hisoblanib litsenziya shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu litsenziya shartnomasining shartlari bozordagi holat va litsenziya predmetiga bo‘lgan talab bilan shakllanadi.

Litsenziya turlari va shartnomalari. Litsenziyaning amal qilish muddati. Litsenziya shartnomalari predmetlari, ulardan foydalanish shartlarining har xilligi litsenziya shartnomalari turlarining ko‘payishiga olib keldi. Litsenziya shartnomalarini shartli ravishda ikkita guruhga ajratish mumkin: 1) beriladigan huquq hajmi bo‘yicha; 2) litsenziyani berish shartlari va undan foydalanish bo‘yicha.

Beriladigan huquq hajmi bo‘yicha litsenziya shartnomalari nomutlaq (oddiy), mutlaq va to‘liq bo‘lishi mumkin.

Nomutlaq litsenziyada litsetziyatga kelishilgan shartlar va hududa hamda belgilab o‘tilgan muddatda litsenziya predmetidan foydalanish huquqi beriladi. Shu bilan birga mazkur hududa va ushbu muddatda litsenziyar litsenziya predmetidan foydylanish va boshqa shaxsga litsenziya bersh huquqiga ega.

Mutlaq litsenziyada litsetziyatga kelishilgan shartlar, aniq bir hududda va belgilangan muddatda litsenziya predmetidan monopoliya asosida foydalanish huquqi beriladi. Bunda shartnomada belgilangan hududa va muddatda litsenziyar litsenziya predmetidan foydalanish va boshqalarga litsenziya berish huquqiga ega emas.

To‘liq litsenziya sanoat mulki obyektlariga beriladi hamda litsenziyatga patent yoki guvohnomadan foydalanish hududini chegaralamaydi va uning butun amal qilish muddatiga beriladi. Bu bilan u mutlaq litsenziyadan farqlanadi.

Huquqlarni boshqa shaxsga o‘tkazishda intellektual mulk obyekti egasi

o‘zgaradi va unga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etishga doir mutlaq huquqlar boshqa shaxsga o‘tkaziladi.

Litsenziya berish shartlari va undan foydalanish bo‘yicha litsenziya shartnomalari “sof”, yo‘ldosh, qaytma, kesma, majburiy, ochiq va sublitsenziyalar bo‘lishi mumkin.

“Sof” litsenziyada – intellektual mulk obyektlaridan foydalanish uchun xuquqlar boshqa savdo, tijorat bitimlarining tarkibiga kiritilmasdan mustaqil litsenziya shartnomasi sifatida taqdim etiladi;

Yo‘ldosh litsenziyada – intellektual mulk obyektlari uchun litsenziyalar asosiy bitimga ilova yoki bu bitimlar bo‘yicha shartnomalarning alohida bo‘limlari hisoblanadi. Masalan, kompleks uskunani yetkazib berish, pudrat ishlari, injiniring, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, qo‘shma korxonalarni tuzish va boshqalar.

Qaytma litsenziyada – litsenziarga litsenziyat tomonidan asosiy litsenziya shartnomasi bo‘yicha olingan birlamchi bilimlar asosida ishlab chiqilgan texnika yoki texnologiya obyektlaridan foydalanish huquqlarini taqdim etadi;

Kesma (kross) litsenziyada – ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini har bir tomonning intellektual mulkga bo‘lgan xuquqini buzmasdan amalga oshirish mumkin bo‘lmagan hollarda turli patent egalari tomonidan bir-biriga patent huquqlarining o‘zaro taqdim etilishi;

Majburiy litsenziyada - patent egasi o‘zi ishlab chiqqan ixtirodan uzoq muddat yoki yetarlicha foydalanmagan, hamda litsenziyalarni sotishdan bosh tortgan hollarda davlat organi tomonidan manfaatdor shaxsga patentlangan ixtiro, foydali model, sanoat namunasidan foydalanish uchun beriladigan ruxsatnomalar.

Ochiq litsenziyada – litsenziyani ixtiyoriy manfaatdor shaxsga sotishga tayyor bo‘lgan patent egasining Patent idorasiga berilgan rasmiy arizasi bo‘yicha patentlangan obyektdan foydalanish xuquqini taqdim etish.

Sublitsenziyada – litsenziar va litsenziyat o‘rtasidagi asosiy litsenziya shartnomasida kelishilgan shartlarda va litsenziarning roziligi bilan litsenziyat tomonidan uchinchi shaxslarga taqdim etiladigan intellektual mulk obyektlaridan foydalanish uchun litsenziya.

Har bir shartnoma kabi litsenziya shartnomalari ham bir necha qismlardan iborat bo‘ladi. Bular quyidagilar bo‘lishi mumkin:

Kirish qismida shartnomada ishtirok etuvchi tomonlarning to‘liq nomalari va manzili ko‘rsatiladi.

Ta’riflash qismida litsenziya shartnomasida foydalanilgan tushunchalarning tarifi beriladi. Oldindan kelishilgan va shakllantirilgan asosiy tushunchalar va terminlar shartnoma shartlarining amalga oshirilishiga ko‘maklashib, shartnomada foydalanilgan terminlarning har xil tushunilishining oldini oladi.

Shartnoma predmeti qismida litsenziya predmeti, huquq hajmi uni berish shartlari, texnik yordam turlari va hajmlari ko‘rsatiladi. Ushbu qismda litsenziya turi (nomutlaqo, mutlaqo yoki to‘liq) aniq ko‘rstailishi lozim.

Texnik hujjatlar qismida ushbu hujjatlarning hajmi va ularni litsenziyaga berish shartlari keltiriladi.

Kafolatlar va majburiyatlar qismida shartnoma tomonlarining huquqiy, texnik va ishlab chiqarish masalalariga tegishli kafolatlari va majburiyatları keltiriladi. Litsenziar litsenziyaga taaluqli bo‘lgan patentga keraki hajmda o‘z huquqlarini kafolatlaydi. Ushbu qismda litsenziar loyihani texnik jihatdan amalga oshirish mumkinligini kafolatlaydi. O‘z o‘rnida litsenziat litsenziya asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini kafolatlaydi.

To‘lovlar qismida litsenziya to‘lovi miqdori va uni to‘lash shartlari belgilanadi. Litsenziya to‘lovi nafaqat litsenziya berish bo‘yicha litsenziarning harajatlarini balki maqbul foya olishini ta’minlashi zarur.

Ma’lumotlar va hujjatlarning sir saflanishi qismida litsenziatning shartnoma asosida olgan intellektual mulkga tegishli hujjatlar, ma’lumotlarning sir saqlanishini kafolatlashi ko‘zda tutiladi.

Reklama qismida litsenziya asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sotilishini ta’minlovchi reklamani amalga oshirish bo‘yicha litsenziatning majburiyatları aks ettiriladi.

Ma’lumotlar va hisobotlar qismida hisobot davrida litsenziyadan foydalanish to‘g‘risidagi ma’lumotlar va hisobotlarni berish tartibi va shartlari belgilanadi.

Ushbu qismda berilgan hisob-kitoblarning litsenziar tomonidan tekshirilishi ko‘zda tutiladi.

Amal qilish muddati va bekor qilish shartlari qismida shartnomaning amal qilish muddati, kuchga kirish shartlari, muddatini uzaytirish va bekor qilish shartlari belgilanadi.

Shartnoma shartlarini bajarish borasida yuzaga keluvchi nizolarni hal qilish yo‘llari arbitraj qismida belgilab o‘tiladi.

Litsenziyaning amal qilishi. Litsenziya har bir litsenziyalanadigan faoliyat turi uchun alohida beriladi. Litsenziya da’vogarining arizasiga muvofiq litsenziya litsenziyalanayotgan faoliyat turining bir qismiga (qismlariga) berilishi mumkin.

Amalga oshirilishi uchun litsenziya berilgan faoliyat, agar litsenziya talablari va shartlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshirilishi mumkin.

Litsenziyaning amal qilish muddati. Litsenziyaning amal qilish muddati, qoida tariqasida, cheklanmaydi. Litsenziya - litsenziya da’vogarining arizasida ko‘rsatilgan muddatga beriladi. Qonun hujjatlari bilan litsenziyaning cheklangan amal qilish muddati belgilanishi mumkin, lekin bu muddat besh yildan kam bo‘lmasligi lozim. Litsenziya faqat litsenziya da’vogarining arizasiga ko‘ra besh yildan kam muddatga berilishi mumkin.

Litsenziyaning amal qilish muddati tugagach, u litsenziyatning arizasiga binoan uzaytirilishi mumkin. Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ariza litsenziyalovchi organga litsenziyaning amal qilish muddati tugashidan kamida ikki oy oldin berilishi lozim. Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish litsenziyani beruvchi uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Nazorat savollari:

1. "Litsenziya" so'zining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Faoliyatning litsenziyalanayotgan turi qaysi tashkilot tomonidan tasdiqlanadi?
3. Litsenzion faoliyatning qaysi turlarini bilasiz?
4. Litsenziya shartnomalari qanday muddatlarga amal qiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Intellektualnaya sobstvennost. Slovar-spravochnik. - M.: Infra-M, 2015, 112 s.
- Rijov K.V. 100 velikix izobreteniy. - M.: "Veche", 2009, 528 s.
- DJumaxo'jayev A. Patentshunoslik. Toshkent:-Mehnat. 2001, 384 b.
3. Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining 25.05.2000 y. 71-II-son Qonuni
4. PQ-4380-son 01.07.2019. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida

IV. АМАЛИЙ МАШГУЛОТ МАТЕРИАЛЛАРИ

1-amaliy mashg‘ulot: Ilmiy kashfiyotlar, EHM uchun dasturlar. Ixtiroga patent berish uchun talabnoma hujjatlari.

Intellektual multk huquqi.

Intellektual faoliyat insoniyat jamiyati rivojlanishining asosiy sababidir. Intellektual faoliyatning eng muhim turlari fan, san’at va texnik ijodiyot, xalqlar va millatlar, davlat va sivilizatsiyalar rivojining doimiy yo‘ldoshidir.

Insoniyat jamiyati o‘z boshidan quldarlik, feodalizm, kapitalizm, sotsializmni kechirdi. XXI asrning boshida, asosiy rivojlantiruvchi kuchi raqobat bo‘lgan bozor iqtisodiy tizim ekanligi tan olindi.

Hamma vaqt ham raqobat kurashida kim intellektual imkoniyatlar va intellektual faoliyat natijalaridan unumli foydalana olsa faqat o‘sha muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

Bundan shunday mantiqiy xulosa chiqadiki, insonning bilim olish, ixtiro qilishga tabiiy intilishi va ijodi mahsulidan iqtisodiy samara olinishi bir-biriga mos kelgandagina u o‘zining ijodiy salohiyatidan oqilona foydalana oladi, shu bois doimiy izlanishdan manfaatdor bo‘ladi.

Faqat multk egasigina o‘z mulkidan yuqori darajada samarali va oqilona foydalanib, uni boshqara oladi. Bunday iqtisodiy rag‘batlantirishning eng maqbul usuli shundan iboratki, inson o‘z intellektual salohiyati natijalariga mulkchilik huquqiga ega bo‘lishi, ya’ni intellektual mulkka egalik qilishi kerak. Zero undan boshqa hech kim bu natijalarga xo‘jayinlik qila olmasin. Faqat uning o‘zигина intellektual ijodi natijalaridan o‘z istagicha foydalanish va boshqa shaxslarga sotish borasida mutloq huquqqa ega bo‘ladi.

Intellekt – insonni hayvonat dunyosidan ajratib turadigan asosiy belgi bo‘lib rivojlanishni sifat jihatidan yangi pog‘onaga ko‘taradi. Intellekt so‘zi lotincha intellectus so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib [1], inson aqli, ongi, fikrlash qobiliyatini bildiradi. Inson hayotining maqsadi – eng yaxshi narsalarga intilishdir. Intellektual faoliyatning keyinchalik qandaydir biror-bir obyektiv (moddiy) shaklda ifodalana

oladigan natijalarigina intellektual mulk bo‘ladi deb aytish mumkin.

Intellektual mulk huquqi yoki intellektual mulk fuqarolik huquqining kichik sohasidir. Patent huquqi va fuqaro munosabatlari ishtirokchiliklarini individuallashtirish vositalarini muhofazalash, shuningdek noan’anaviy obyektlarni muhofazalashdan iborat bo‘lgan mualliflik huquqi va sanoat mulki shu kichik sohaning institutlaridir.

Patent huquqini himoyalash sohasidagi ilk qadamlar Angliyada qo‘yildi. Mamlakatda feodallarga tegishli imtiyozlar tizimini patent huquqiga aylantirish jarayoni XVII asrda boshlandi. AQSH va Fransiya Angliyadan keyin ixtirolarni muhofazalash qabul qilingan mamlakat bo‘ldi. Yevropaning boshqa mamlakatlarida patent qonunlari nisbatan kechroq qabul qilindi (Rossiyada 1812y.).

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) quydagilarni haqli ravishda o‘zining shiori deb e’lon qildi: Insoniyat dahosi jami san’at asarlari va ixtirolarning manbaidir. Bu asarlar insonga munosib hayot kafolatidir. Barcha turdagи san’at asarlari va ixtirolarni ishonchli himoyalash har bir davlatning burchidir.

Intellektual mulk obyektlarini ko‘rib chiqar ekanmiz, shuni qayd etish mumkinki, intellektual mulkda obyektlarning ikki guruhi alohida ajralib turadi: san’at bilan bog‘liq badiy asarlar va sanoat tarmog‘i – xususan yangi buyumlar, tovarlar va texnologiyalarni ishlab chiqish va bozorga taklif etish bilan bog‘liq obyektlar.

Aynan ana shu vaziyatlar XX asrda jahonda umum qabul qilingan xalqaro huquqiy standartlar shakllanishiga olib keldi, shunga muvofiq intellktual mulk o‘z ichiga ikki asosiy huquqlar sohasini oladi:

- mualliflik va turdosh huquqlar, unga muvofiq ilmiy, adabiy, musiqiy, badiiy, fotografiya va audiovizual asarlarga huquqlar, shuningdek fonogramma ishlab chiqaruvchilar va ijrochilar, efir va kabel eshittirishlari tashkilotlarining huquqlari himoya qilinadi;

- sanoat mulki, u ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalari, shuningdek tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilari, tovarlarning kelib chiqish joyi, firma

nomlariga huquqlarni o‘z ichiga oladi.

Sanab o‘tilgan barcha muayyan huquqiy muhofaza obyektlari, xususan, badiy asarlar va san’at turlari, ixtiolar, tovar belgilari, EHM uchun dasturlar va hokazolar intellektual mulk obyektlari deb ataladi.

Mualliflik huquqi adabiyot, fan va san’at asarlri o‘zining aniq ifodasini topgan shaklni muhofaza qiladi. Bunday ifodalash shakli so‘z, timsollari, musiqa, surat, uch o‘lchovli predmetlar yoki bunday shakllarning kombinatsiyasi (masalan, kinofilm yoki teatr pos-tanovkasi, opera) bo‘lishi mumkin. Mualliflik huquqlari asarlarning istalgan turini maxsus ruxsatsiz (muallif roziligidisiz) nusxa ko‘chirish, ko‘paytirish va boshqa usulda qayta tiklashdan muhofazalaydi.

Sanoat mulki, mualliflik huquqidan farqli ravishda bevosita g‘oyani, xususan buyumning turli shakllarda ko‘p marta qayta ishlatilishi mumkin bo‘lgan texnik, badiy va boshqa mohiyatlarni muhofaza qiladi.

Patent davlat nomidan sanoat mulki obyektiga beriladigan va muayyan hududda muayyan vaqt oralig‘ida amal qiladigan muhofaza hujjatidir.

Ushbu sohada O‘zbekistonda mas’ul tashkilot 1992 yildan 2011 yilgacha VM qoshidagi O‘zR Davlat patent idorasi, 2011 yildan 2019 yilgacha O‘zR Intellektual mulk agentligi, 2019 yildan boshlab O‘zR Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi (1-rasm) (PQ-4380-son 01.07.2019. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida).

1-rasm. O‘zR Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining tashkiliy strukturasi.

Ilmiy kashfiyotlar va uning obyektlari. EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari

Ilmiy kashfiyotlar va uning obyektlari. Kashfiyot deb bilim darajasiga tubdan o‘zgartirish olib kiradigan ilgari noma’lum bo‘lgan ammo obyektiv mavjud

bo‘lgan moddiy dunyoning hodisa, xossa va qonuniyatlarini tushuntirib beruvchi ta’limotga aytildi.

Kashfiyotni himoya qilish maqsadi:

Ilmiy mazmun ishonchlilagini tasdiqlash uchun;

Muallif va davlat ustunligini o‘rnatish;

Kashfiyot muallifining xususiyatlarini tan olish va unga tegishli imtiyozlar berish;

Kashfiyot bilan bog‘liq ilmiy-texnologik masalalarni hal qilishda ko‘maklashish;

Fan va texnikada, foydalanish uchun kashfiyotlarni davlat tomonidan ma’lumot uchun qabul qilinishi va hisobga olinishi;

Kashfiyot quyidagi hollarda e’tirof etiladi:

1. Ilgari noma’lum bo‘lgan, agar birinchi topilgan kungacha davlatimizda yoki xorijda e’lon qilinmagan bo‘lsa, uchinchi shaxsga yetkazilmagan bo‘lsa;

2. Agar jiddiy xususiyatga ega bo‘lib dunyoni ilmiy o‘rganishga muhim hissa qo‘sha olsa, bilim darajasiga tubdan o‘zgartirishlar olib kirsa shu jumladan fan va texnika ravnaqi borasidagi yangi yo‘nalishlar va yangi texnika yechimlarga asos solsa;

3. Ilgari ma’lum bo‘lgan nazariy tushunchalarni umuman o‘zgartirib yuborsa;

4. Ilgari ilmiy jihatdan tushuntirilmagan ilmiy haqiqatlarni izohlay olsa.

Kashfiyot quyidagi hollarda e’tirof etilmaydi:

Foydali qazilmalar, ijtimoiy fanlar sohasidagi jo‘g‘rofiy va arxeologik kashfiyotlar tan olinmaydi.

Kashfiyot obyektlari uchta tushunchadan iborat bo‘lib ular quyidagilardir:

1. Hodisa deb ilgari noma’lum bo‘lgan bilim darajasini tubdan o‘zgartirishga olib keladigan obyektiv mavjud bo‘lgan moddiy dunyo mohi-yatining namoyon bo‘lish shakliga aytildi.

2. Xossa deb, ilgari noma’lum bo‘lgan bilim darajasini tubdan o‘zgartirishga olib keladigan moddiy dunyoni borlig‘ining obyektiv mavjud sifatli tomoniga aytildi.

3. Qonuniylik deb, ilgari noma'lum bo'lgan bilim darajasini tubdan o'zgartirishga olib keladigan moddiy dunyo hodisalari va xossalari o'rtasidagi obyektiv mavjud bo'lgan barqaror munosabatiga aytildi.

Kashfiyat ustunligi ilmiy qoidaning birinchi marta ta'riflab berilgan kundan, uning matbuotda e'lon qilingan vaqtin uchinchi shaxsga yetkazilgan kundan belgilanadi.

EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari. Kompyuterlar va axborot texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalariga jadal sur'atlarda kirib kelmoqda. Bugungi kunda inson faoliyatining elektron hisoblash mashinalari (EHM)dan foydalanmaydigan sohalari deyarli qolmadi. Agar 80-yillarning o'rtalarigacha EHMdan faqat fan va ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalanilgan bo'lsa, shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi bilan EHM larning keng tarqalish davri boshlandi. Hozir hech amaliy masalani EHM siz hal qilib bo'lmaydi, fan va ishlab chiqarish sohasidan tashqari, deyarli barcha korxona va tashkilotlarning ish yuritishi EHMdan keng foydalanishga asoslangan.

Bugungi kunda kompyuter insonlarning o'zaro munosabatlari, axborot bilan almashishning bosh vositasiga aylandi.

Kompyuter har qanday ishda insonning eng yaqin yordamchisidir. Lekin kompyutering o'zi to'laqonli yordamchi emas. Uning qandaydir masalani hal qilishdagi foydaliligi to'laligicha u ishlaydigan dasturga bog'liqdir. Dasturiy ta'minot kompyutering jonidir.

Har qanday EHM ni ikki qismga bo'lish mumkin: apparat-texnik (hardware) va dasturiy ta'minot (software).

Dasturiy ta'minot yoki EHM uchun dastur bu EHM, uning tarmoqlari va boshqa kompyuter vositalarining muayyan natijalar olish maqsadida ishlash uchun mo'ljallangan ma'lumotlar va buyruqlar majmuidir.

Ma'lumotlar bazalari bu ma'lumotlar (masalan, maqolalar, hisob-kitoblar) majmui bo'lib, u shunday tartibga solinganki, elektron hisoblash mashinalari yordamida ularni topish va ishlov berish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va "Mualliflik huquqi va turdosh

huquqlar to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq EHM va ma’lumotlar bazalari uchun dasturlar mualliflik huquqi obektlariga kiritilgan. Demak, tegishlichcha EHM va ma’lumotlar bazasi uchun dasturlarga mualliflik huquqining barcha tamoyillari tarqaladi.

“Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalarini huquqiy muhofazalash to‘g‘risida”gi qonun bilan EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazasiga mualliflik huquqlari (mualliflik huquqining boshqa har qanday obyektlari kabi) ular yaratilgandan so‘ng vujudga keladi va qandaydir ro‘yxatga olish yoki boshqa rasmiyatichiliklarga rioya qilishni talab qilmaydi. Muallif o‘z dasturini o‘z istagiga ko‘ra va faqat o‘z mualliflik huquqining muhofaza darajasini oshirish maqsadida ro‘yxatdan o‘tkazishi mumkin.

O‘z dasturi yoki ma’lumotlar bazasini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun muallif (yoki boshqa huquq egasi) Agentlikka tegishli talabnomha berishi zarur.

- dasturlar yoki ma’lumotlar bazalarini ro‘yxatga olish uchun tegishli ro‘yxatga olish bojlari to‘lanadi.

Agentlik ro‘yxatga olish uchun buyurtma tushgandan so‘ng rasmiy ekspertiza o‘tkazadi (bunda zarur hujjatlarning mavjudligi hamda qoidalarda belgilangan talablarga muvofiqligi tekshiriladi) va tekshirish natijalari ijobiy bo‘lsa, Agentlik EHM uchun dasturlar yoki ma’lumotlar bazalarini tegishlichcha Dasturiy maxsulotlar davlat reyestri yoki Ma’lumotlar bazalari davlat reyestriga kiritadi, buyurtma beruvchiga dastur yoki ma’lumotlar bazalarining rasmiy ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risida guvohnoma beradi hamda Agentlikning rasmiy byulletenida ro‘yxatga olingan EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni e’lon qiladi.

Nazorat savollari.

1. Qanday obyektlar mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga kiradi?
2. Mustaqil va mustaqil bo‘lmagan asarlar qanday farqlanadi?
3. Kim asarning muallifi hisoblanadi, asarlarga hammualliflikning turli holatlarini ko‘rsatib bering?

4. Asar muallifiga qanday huquqlar tegishli?
5. Mualliflik shartnomasi erkinligi tamoyili nimadan iborat?
6. Mulliflik huquq obyekti sifatida EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarining o'ziga xos tomonlari nimadan iborat?
7. Dasturning dastlabki matni, obyekt kodi, EHM uchun dasturlarni dekompilyatsiyalash nima?
8. EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini davlat ro'yxatiga olish tartibini ko'rsatib bering?

Ixtiro, ixtiro turlari. Ixtiroga patent berish uchun talabnama hujjatlari.

Ixtiro turlari. Qurilmalar, usullar, moddalar, mikroorganizmlarning shtammlari, o'simliklar va hayvon hujayralarining turlari, ilgaridan ma'lum bo'lgan qurilmalar, usullar, moddalarning, mikroorganizmlar shtammlarining yangi maqsadda qo'llanilishi ixtiro sifatida e'tirof etiladi.

Qurilma. Qurilmalarga, konstruksiyalar, konstruktiv elementlar yoki ularning funksional konstruktiv birlikda bo'lgan majmuidan iborat buyumlar kiradi.

Qurilmalarga mashinalar, asbob-uskunalar, apparat, idishlar, transport vositalari, mahkamlovchi buyumlar, mashina detallari, idish-tovoqlar, mebel, poyafzal, aloqa vositalari, qurilish konstruksiyalari, binolar, inshootlar, bino qismlari va boshqalar kiradi.

Usul. Usullarga moddiy obyekt (qurilma, muhit, elektr zaryadi, magnit maydoni va boshqalar) ustida moddiy obyektlar yordamida o'zaro bog'liq harakatlarni bajarish jarayonlari kiradi.

Modda. Ixtiro turi sifatida moddalarga:

individual kimyoviy birikmalar, bularga shartli ravishda yuqori molekulyar birikmalar va gen muxandisligi obyektlari kiritilgan;

kompozitsiyalar (aralashmalar, qotishmalar, eritmalar va boshqalar);

yadroviy parchalanish mahsulotlari kiradi.

Mikroorganizm shtammi, o'simliklar va hayvonlar hujayralarining turlari.

Mikroorganizm shtammi - bu o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha tanlab olish bilan

saqlanib turiladigan, qo'llaganda foydali moddalar hosil qiladigan yoki boshqa foydali xususiyatlarga ega bo'lgan virus, bakteriya va zamburug'larning irsiy jihatdan bir jinsli turlaridir.

Avvaldan ma'lum bo'lgan qurilmalar, usullar, moddalar, shtammlarning yangi maqsadda qo'llanilishiga ularning yangi vazifada ishlatilishi kiradi. Avvaldan ma'lum bo'lgan (tabiiy va sun'iy yo'l bilan olingan) moddalarni ijtimoiy iste'molni qanoatlantirish uchun birinchi marta ishlatilishi yangi maqsadda ishlatishga tenglashtiriladi.

Quyidagilar patentga layoqatli ixtiolar deb tan olinmaydi:

- ilmiy nazariyalar va matematika usullari;
- xo'jalikni tashkil etish va boshqarish usullari;
- shartli belgilar, jadvallar, qoidalar;
- aqliy operatsiyalarni bajarish qoidalari va usullari;
- elektron hisoblash mashinalari uchun algoritmlar va dasturlar;
- binolar, inshootlar, hududlarni rejalashtirish loyihalari va sxemalari;
- estetika talablarini qanoatlantirishga yo'naltirilgan, mahsulotlarning faqat tashqi ko'rinishiga oid yechimlar;
- integral sxemalarning topologiyalari;
- o'simlik navlari va hayvon zotlari;
- jamoa manfaatlari, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid yechimlar.

Ixtiroga patent berish uchun talabnama. Ixtiroga O'zbekiston Respublikasi patenti berish uchun talabnama tuzish Qoidalari O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994 yil 6 maydagi 1063-XII sonli qaroriga muvofiq kuchga kiritilgan "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuning 2 - moddasi 2 - qismiga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi IMA ixtiroga patent berish uchun talabnama tuzish tartibini belgilovchi meyoriy hujjatlari asosida tuzib chiqiladi.

Har qanday talabnama faqat yagona maqsad – yaratilgan ixtiroga muhofaza hujjati (patent) olish uchun tuziladi va Patent idorasiga topshiriladi. YA'ni patent ekspertizasi o'tkazish vaqtida talabnomada ko'rsatilgan obyekt (qurilma, usul yoki

modda) ning patentga layoqatlilikning belgilangan mezonlariga mos kelishi tan olinishi uchun beriladi.

Ixtiro tavsifi quyidagi mantiqiy sxema bo‘yicha tuziladi:

Ixtironing maqsadi, uning qo‘llanish sohasi ochib beriladi;

Ixtirogacha bo‘lgan texnik darajasi bayon etiladi, ilgari ma’lum ixtirolarning kamchiliklari keltiriladi va h.k.;

Texnikaning ushbu sohasi oldida turgan va hal qilinishi zarur texnik, iqtisodiy va boshqa natijalar beradigan vazifalar, dolzarb muammolar ko‘rsatiladi;

4. Ixtironing o‘zi ochib beriladi, ixtiro qanday qilib qo‘yilgan vazifani hal qilishi, zarur texnik natijalarga erishilishiga dalillar keltiriladi, ixtironi amalga oshirishning aniq misollari keltiriladi va h.k.[7].

Talabnomaga tarkibi. Talabnomaga quyidagi hujjatlarni o‘z ichiga oladi:

ixtiro muallifi (mualliflari) va nomiga patent berilishi so‘ralayotgan shaxs (shaxslar), shuningdek ularning yashash yoki turar joyi ko‘rsatilib, patent berish so‘ralgan ariza;

ixtironing uni amalga oshirish uchun yetarli bo‘lgan darajada to‘liq bayon etilgan tavsifi;

ixtiro mohiyatini aks ettiruvchi va uning tavsifiga to‘la muvofiq bo‘lgan ixtiro formulasi;

ixtiro mohiyatini tushunish uchun zarur bo‘lsa, chizmalar va boshqa materiallar;

referat.

Talabnomaga ilova qilinadigan hujjatlar:

1. Talabnomaga belgilangan miqdorda boj to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat yoki boj to‘lashdan ozod qilishni asoslovchi hujjat ilova qilinadi. Boj belgilangan miqdordan kam to‘langan holda, boj miqdori kamaytirilishini asoslovchi hujjat qo‘sib beriladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan hujjatlar talabnomaga bilan birga berilishi kerak.

Ixtiro hujjatlarining berilishi. Talabnomaga tili. Patent berish to‘g‘risidagi ariza

o‘zbek yoki rus tilida beriladi. Talabnama milliy talabnama beruvchilar yoki MDH talabnama beruvchilari tomonidan berilsa, arizada ko‘rsatilgan ixtiro nomi o‘zbek va rus tillarida berilishi lozim.

Nusxalar soni. Talabnomaning yuqorida ko‘rsatilgan o‘zbek yoki rus tilida tuzilgan hujjatlari uch nusxada beriladi.

Shu hujjatlar agar boshqa tilda bo‘lsa bir nusxada, ularning tarjimasi uch nusxada beriladi.

Qolgan hujjatlar va ularning o‘zbek yoki rus tiliga tarjimasi bir nusxada beriladi.

“Venn diagramma” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalgaga oshirish tartibi:

ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;

juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yoxud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.


Amaliy mashg‘ulot bo‘yicha tinglovchilarga bajarish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq: “Venn diogramma” metodi asosida vazifani bajarish.

Vazifani bajarish uchun tinglovchilar sonidan kelib chiqib 3-4 kichik guruhlarga ajratish va qo‘yidagi topshiriqnini berish:

Intellektual obyektlari, sanoat mulki va mualliflik quqiqlarning umumiyligi va o‘xshashlik tomonlarini topish va tvqdimot qilish.

Intellektual mulk obyektlari (IMO) va ularning



2-topshiriq: Tinglovchilarni juftliklarga ajratish va qo‘yidagi vazifalarni bajarish uchun berish:

1. Ixtiro tavsiyi mantiqiy sxemanituzish.
2. Talabnama o‘z ichiga oladigan hujjatlar.
3. Talabnomaga ilova qilinadigan hujjatlar.

Tinglovchilar berilgan vazifani bajarib beradi va taqdimot qildi.

Nazorat savollari.

Qanday obyektlar ixtiro sifatida tan olinadi?

Qurilmani tavsiiflash uchun qanday belgilardan foydalilaniladi?

Usulni tavsiiflash uchun qanday belgilardan foydalilaniladi?

Moddani tavsiiflash uchun qanday belgilardan foydalilaniladi?

Texnika darajasi nima, u qanday ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi?

Ixtironing yangiliginini ekspertizadan o‘tkazishnimadan iborat, yangilik mezonlarining qanday «tur»lari mavjudligini ko‘rsating?

Ixtironing sanoatda qo‘llanish mezoniga muvofiqligi qanday tekshiriladi?

2-amaliy mashg‘ulot: Foydali model, sanoat namunalari, tovar belgilari.

Patent axboroti. Xalqaro patent tasnifi.

2.1. Intellektual mulk mahsulotlarining noan'anaviy obyektlari.

Seleksiya yutuqlari. O‘simliklarning yangi navlari va hayvonlarning yangi zotlari seleksiya yutuqlariga kiradi. Bunda nav va zotlar ma’lum nav va zotlardan aniq farqlari bilan ajralib turishi, yetarli darajada bir xil va barqaror bo‘lishi zarur. Bundan tashqari faqat O‘zbekiston Respublikasida muhofaza qilinadigan botanik va zoologik turlarga kiradigan nav va zotlargina huquqiy muhofaza olishi mumkin.

Seleksiya yutuqlarini muhofazalash sohasidagi huquqiy bazani o‘rganishni davom ettirishdan oldin bu sohada foydalaniladigan asosiy tushunchalarni ko‘rib chiqamiz.

O‘simlik navi nasldan-naslga barqaror ravishda o‘tadigan belgilari bilan ajralib turadigan o‘simliklar guruhidir. Bunday belgililar o‘simlik genotipi yoki genotiplar kombinatsiyasini tavsiflab berishi, bunda o‘simliklar guruhi aynan shu botanik taksonga mansub boshqa o‘simliklar guruhidan bir yoki bir necha belgilari bilan ajralib turishi zarur. Yangi nav sifatida bitta yoki bir nechta o‘simlikni taqdim etish mumkin, faqat bunday qism yoki qismlardan navning butun bir o‘simliklarini ko‘paytirish mumkin bo‘lsin. Navning muhofaza qilinadigan obyektlari klon, liniya, birinchi avlod, duragay va populyatsiyalaridir.

Hayvonlar zoti deb genetik jihatdan belgilangan biologik va morfologik xususiyatlar hamda belgilarga ega bo‘lgan hayvonlar (shu jumladan qushlar, hashoratlar, tut ipak qurti) yoki ularning duragaylari tan olinadi, bunda bu xususiyat va belgilarning ba’zilari aynan shu guruh uchungina xos bo‘lishi va uni boshqa guruh hayvonlaridan ajratib turish zarur. Zot urg‘ochi va erkak jinsiga mansub yoki naslchilik materiali bo‘lishi mumkin. Zotning muhofaza qilinadigan obyektlari zot guruhlari, zot ichidagi (zonal) tiplar, zavod tipi, zavod liniyasi, oilalar, partenoklonlar, liniya va duragaylardir.

Qonunchilikka muvofiq [2] O‘zbekistonda seleksiya yutuqlariga huquqlar patent yoki guvohnoma bilan tasdiqlanadi.

Seleksiya yutuqlariga beriladigan bu ikki hujjatning bir-biridan farqi shundan iboratki, seleksiya yutug‘iga patent to‘liq ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi, guvohnoma berish uchun esa seleksiya yutug‘ining bir xilligi va barqarorligini sinash kifoya. Bundan tashqari, guvohnoma O‘zbekistonda muhofaza qilinmaydigan botanik hamda zoologik tur va zotlarga ham berilishi mumkin.

Demak, seleksiya yutug‘iga berilgan patent seleksiya yutug‘ining yangiligi, uning farqli tomonlari, bir xilligi va barqarorligini, shuningdek patent egasining ushbu seleksiya yutug‘ini nomlash, unga egalik qilish va foydalanish huquqini tasdiqlaydi.

Guvohnoma esa guvohnoma egasining faqat seleksiya yutug‘ini nomlash, unga egalik qilish, foydalanish huquqini tasdiqlab beradi.

Seleksiya yutug‘iga muhofaza hujjati olish uchun seleksiyachi, ish beruvchi va boshqalar patent yoki guvohnoma berilishi uchun tegishli talabnomani berishlari zarur.

Integral mikrosxemalar topologiyasi. EHM sanoat asosida ishlab chiqarila boshlangan sanadan (1951 yil, Remington Rand Cor.) boshlab hisoblash texnikasi obyektlarini muhofazalash muammolarini hal qilishda ikki yo‘nalish: patent va mualliflik huquqi keng tarqaldi. Bu EHMni muhofazalash obyektlarining dastlab ixtiro sifatida patent huquqi bilan himoyalananadigan apparat-texnika obyektlari hamda mualliflik huquqi bilan himoyalananadigan dasturiy ta’milot obyektlariga bo‘linganligi bilan bog‘liqdir. Keyinchalik bu obyektlarning har biri yetarli darajada mustaqil toifalarga bo‘linadigan bo‘ldi. EHM apparat-texnik qismining rivojlanishida sifat jihatidan birmuncha yangi bosqichlar yoki boshqacha aytganda EHMning yangi avlodи vujudga keldi. EHMning integral mikrochizmalarga o‘tishi bilan apparat-texnika qismidan mustaqil obyekt - integral mikrochizmalar (IMCH) topologiyasi ajralib chiqdi [3].

2.2. Foydali model, sanoat namunalari, tovar belgilari va ularning kelib chiqish joylari. Asosiy tushunchalar.

Sanoat namunalari. Sanoat namunasining patentga layoqatlilik shartlari. Sanoat namunasi inson ijodiy faoliyati yo‘nalishining amalga oshishi bo‘lib, aniq maqsad va iste’molchilar doirasiga ega.

Ta’rifiga ko‘ra sanoat namunalariga qandaydir bir obyekt tashqi ko‘rinishining badiiy-konstrukturlik (dizayn) yechimi kiradi.

Sanoat namunalari hajmiy (modellar), yassi (rasmlar) yoki ularning aralash ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sanoat namunasining yangiligi, o‘ziga xosligi va sanoatda qo‘llanilishi uning patentga layoqatlilik shartlari hisoblanadi.

Agar sanoat namunasining buyumning estetik va (yoki) ergonomik xususiyatlarini belgilovchi muhim belgilari (alomatlari) majmui uning ustuvorlik sanasidan oldin jahondagi nufuzli axborot manbalari orqali barchaga ma’lum bo‘lmagan bo‘lsa yangi deb tan olinadi.

Sanoat namunasining muhim belgilari majmui buyum estetik xususiyatlarning ijodiy xarakteri bilan bog‘liq bo‘lsa u o‘ziga xos deb tan olinadi.

Sanoat namunasi ko‘p karra qayta ishlab chiqarish imkoniyatini beradigan bo‘lsa sanoatda qo‘llaniladigan deb tan olinadi.

Qonun bilan, shuningdek, sanoat namunasi deb tan olinmaydigan obyektlar ro‘yxati belgilangan, xususan:

Nashriyot-bosma mahsulotlari;

Me’morchilik obyektlari (kichik me’morchilik shakllaridan tashqari), sanoat, gidrotexnika va boshqa ko‘chmas inshoatlar;

Suyuq, gazsimon, sochiluvchan yoki ularga o‘xshash moddalardan iborat barqaror bo‘lmagan obyektlar;

Buyumlarning faqat texnik vazifasidan kelib chiqadigan yechimlar;

Shuningdek jamiyat manfaatlari, insonparvarlik va axloq tamoyillariga zid yechimlar.

Sanoat namunasining mohiyati va uning huquqiy muhofa-zalash hajmi eng avval, uning muhim belgilari majmui bilan ifodalanadi, bu belgilar namuna fotosuratlarida aks ettiriladi va buyumning tashqi ko‘rinishi va o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Muhim belgilarni so‘zlar bilan tavsiflash tasviriy axborotni tushuntirib berishni ta’minlaydi.

Sanoat namunasiga O‘zbekiston Respublikasining patenti yoki patentini berish uchun yoki dastlabki patent (2002 yil oktabr oyigacha) berish uchun talabnama quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

1. Patent yoki dastlabki patent berish to‘g‘risida belgilangan shaklda tuzilgan ariza, u sanoat namunasi muallifi (mualliflari), patent kim (kimlar)ning nomiga berilishi so‘rarayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxs (shaxslar) va talabnama beruvchi to‘g‘risidagi talab etiladigan ma’lumotlardan iborat bo‘ladi.

2. Buyum, maket yoki rasmni aks ettiruvchi fotosuratlar to‘plami, ular buyumning huquqiy muhofaza hajmini belgilab beruvchi muhim belgilar majmuini aniqlash imkonini beradigan tashqi ko‘rinishi to‘g‘risidagi mufassal tasavvur hosil qiladi.

3. Buyum tashqi ko‘rinishing chizmasi, ergonomik sxemasi, konfektion kartasi, agar ular sanoat namunasi mohiyatini ochib berish uchun zarur bo‘lsa.

4. Sanoat namunasining tavsifi, u fotosuratlarda aks ettirilgan buyumning tashqi ko‘rinishini so‘zlar vositasida ochib berishi va uning muhim belgilar majmuini o‘z ichiga olishi kerak.

Talabnomaga berilgan miqdorda boj to‘laganligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinishi zarur.

Tovar belgilarining turlari. Tovar belgilarini huquqiy muhofaza qilmasdan madaniy bozor munosabatlarini o‘rnatish mumkin emas. Intellektual mulk obyekti sifatida tovar belgisining o‘ziga xos xususiyati uning tovar va xizmatlar bozoridagi bajaradigan roli bilan tushuntiriladi.

Tovar belgisi (yoki xizmat ko'rsatish belgisi) fuqarolik muomalasi ishtirokchilari va ular ishlab chiqaradigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni xususiy alomatlarini aks ettiruvchi (individuallashtirish) uchun xizmat qiladigan belgidir.

O'zbekistonda tovar belgilari bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlar "Tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. Tovar belgisi (xizmat ko'rsatish belgisi)ning huquqiy muhofazasi u ro'yxatga olinishi bilan yuzaga keladi.

Qonunga muvofiq quyidagi belgilar tovar belgisi sifatida ro'yxatga olinishi mumkin:

So'zlar yoki harflar birikmasidan iborat bo'lgan so'z bilan ifodalanadigan belgilar;

Tasviriy belgilar – liniyalar kompozitsiyasi, istalgan shkldagi figuralarning tekislikdagi soyasi shaklidagi;

Hajmiy belgilar – uch o'lchamli fazodagi figuralar (liniyalar) yoki ularning kompozitsiyasi shaklidagi;

aralash – tasviriy, so'zli, hajmiy harakterdagi elementlarning kombinatsiyasidan iborat va hokazo.

Tovar belgisi istalgan rangda yoki ranglar birligida ro'yxatga olinishi mumkin.

Shu bilan birga qonun bilan u yoki bu belgilarni tovar belgilari sifatida ro'yxatga olish imkonini bermaydigan muayyan cheklashlar belgilangan. Qonun tovar belgisini ro'yxatga olishni rad etish uchun mutlaq va boshqa asoslarni belgilab beradi.

Masalan, faqat quyidagi belgilardan iborat tovar belgisi ro'yxatga olish uchun taqdim etilgan hollr ro'yxatga olishni rad etish uchun mutlaq asos hisoblanadi:

1. Farq qiluvchi xususiyatlari bo'lmagan. Bunday belgilarga xususan quyidagilar kirish mumkin:

o‘ziga xos grafik ijroga ega bo‘lmagan ayrim harf, raqamlardan iborat bo‘lmagan belgilar, biror-bir mazmunni ifodalamaydigan harflar birikmasi, kompozitsiya hosil qilmaydigan chiziqlar va oddiy geometrik shakllar va boshqalar;

tovarlarni belgilash uchun tovar belgisi sifatida ro‘yxatga olishga talabnomalar berilgan tovarlarning haqiqiy va sxematik tasvirlari

shaklni faqat ishlatish maqsadlaridan kelib chiqqan uch o‘lchamli obyektlar; odatda tovarlarning oddiy umum qabul qilingan nomlari, tashkilotlar, korxonalar, tarmoqlarining qabul qilingan qisqartma nomlari va abbreviaturalari.

2. Davlat gerbi, bayrog‘i va ramzlari; davlatlarning rasmiy nomlari; xalqaro yoki hukumatlararo tashkilotlarning to‘la yoki qisqartirilgan nomlaridan iborat belgilar, mukofatlar va boshqa taqdirlash belgilar yoki ularga o‘xhash belgilar, shuningdek tovar ishlab chiqaruvchining yashash joyini ko‘rsatuvchi belgi sifatida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan qisman yoki to‘liq geografik belgilardan iborat belgilar.

Shuni qayd etib o‘tamizki, bunday belgilar, agar tegishli vakolatli organ yoki bu belgilar egalarining roziligi olingan bo‘lsa, tovar belgisiga muhofaza qilinmaydigan element sifatida kiritilishi mumkin.

3. Muayyan turdagи tovarlarning belgisi sifatida umum qabul qilingan va qo‘llaniladigan belgilar. Bunday belgilar deganda, odatda muayyan tipdagи tovarning uzoq muddat mobaynida va keng miqyosda qo‘llanilishi natijasida uning turini ifodalovchi tushunchaga aylanib ketgan va muayyan tovar uchun foydalilanadigan belgilar tushuniladi;

4. Umum tomonidan qabul qilingan ramz va atamalar. Bunday ramzlarga, odatda, ushbu tovar taalluqli bo‘lgan faoliyat sohasi yoki xo‘jalik tarmog‘ining ramzi bo‘lgan belgilar, fan va texnikada qo‘llaniladigan shartli belgilar kiradi. Umum qabul qilingan atamalarga esa fan va texnikaning muayyan sohasi uchun xos bo‘lgan leksik birliklar kiradi.

5. Tovarlarning ko‘rinishi, sifati, soni, xususiyatlari, maqsadi, qimmati, shuningdek tovarlarni ishlab chiqarish va sotish joyi hamda vaqtini ko‘rsatuvchi belgilar.

6. Soxta yoki iste’molchilarda tovar yoki uni ishlab chiqaruvchi to‘g‘risida noto‘g‘ri tasavvur hosil qilishga olib keladigan, shuningdek jamoatchilik manfaatlari, insonparvarlik va axloq tamoyillariga zid bo‘lgan belgilarni tovar belgisi yoki uning elementi sifatida ro‘yxatga olishga urinishlar ham tovar belgisini ro‘yxatga olishni rad etish uchun mutlaq asos bo‘ladi.

Ta’kidlab o‘tamizki, O‘zbekiston Respublikasida hech kim muhofaza qilinadigan tovar belgisidan egasining roziligini olmasdan turib foydalanishi mumkin emas.

Tovar belgisini yoki unga adashtirib yuborish darajasida o‘xhash belgini ruxsatsiz xo‘jalik oborotiga kiritish tovar belgisi egasining huquqlarini buzish hisoblanadi [6].

Tovar belgisining egasi o‘z huquqlari buzilishining oldini olish maqsadida tovar belgisi yoniga ogohlantiruvchi belgini qo‘yishi mumkin, u tovar yoki uning joylash buyumida qo‘llanilgan belgi O‘zbekistonda ro‘yxatga olingan tovar belgisi ekanligini ko‘rsatadi. Bunday ogohlantiruvchi belgi doira ichiga olingan lotincha “R” harfidan iborat -®.

Nazorat savollari.

Qanday obyektlar sanoat namunalari deb tan olinadi?

Sanoat namunalarining turlarini ta’riflash uchun qanday belgilardan foydalilanadi?

Sanoat namunasining patentga layoqatlilik mezonlari nimadan iborat?

Sanoat namunasining o‘ziga xosligi ekspertizadan qanday o‘tkaziladi?

Sanoat namunasiga patent olish uchun talabnama qanday hujjatlardan iborat bo‘ladi?

Qanday belgilar tovar belgilari sifatida ro‘yxatga olinishi mumkin?

Tovar belgisini ro‘yxatga olishni rad etish uchun mutlaq va boshqa asoslar nimalardan iborat?

2.3. Patent axboroti. Xalqaro patent tasnifi

Patent axborotlarining ahamiyati. Patent axboroti manbalari. Bugungi kunda zamonaviy texnik bilimlar, ixtiolar sanoat namunalari va hokozalar to‘g‘risidagi axborotning qanchalik muhimligi barchaga ayon. Aniq va o‘z vaqtidagi axborotga ega bo‘lish aksariyat hollarda muvaffaqiyat va mag‘lubiyat o‘rtasidagi farqni bildirishi mumkin. Masalan, yangi ixtiolar to‘g‘risida axborotga ega bo‘lmagan har qanday tadqiqot instituti kimdir allaqachon hal qilib qo‘ygan muammo ustida tadqiqot olib borayotganini aniqlaguncha qancha vaqt va mablag‘ni behuda sarflashi mumkin.

Bunday o‘zini oqlamaydigan tavakkalchiliklarga faqat bir usul har qanday loyihani tegishli axborot tadqiqotlari o‘tkazishdan boshlash bilan yo‘l qo‘ymaslik mumkin.

Patent axborotini universal axborot resursi deb atash mumkin, chunki u ham katta tijorat qimmatiga ega, xususan:

1. Patent axboroti doimiy ravishda hajmi oshib borayotgan zamonaviy texnika yutuqlaridan tez va to‘la xabardor bo‘lib borish imkonini beradi. Patentlar hamma vaqt eng so‘ngi axborotni beradi, chunki bozor iqtisodiyoti va raqobat kurashi ixtirochilar (yoki ularning ish beruvchilari)ni o‘z g‘oyalarini patentlashni birinchi navbatdagi vazifa deb hisoblashga majbur qiladi. Chunki bir xil ixtiroga talabnama beruvchilar ichida birinchi bo‘lib talabnama bergen kishi patent oladi va demak bu patentdan kelib chiqadigan huquqlarga ega bo‘ladi;

2. Muhim huquqiy axborotlar, masalan, patent bilan muhofazalangan ixtiro hajmi, mutlaq huquqlarning amal qilish muddati va hokazo to‘g‘risidagi axborotlarni o‘z ichiga oladi;

3. Nafaqat muayyan intellekual mulk obyektlarini iqtisodiy tahlil qilish, balki texnika, ishlab chiqarish tarmoqlari, tadbirkorlik faolligining rivojlanishini kuzatish imkonini beradi va hokazo;

4. Bundan tashqari, patent axboroti patent egalari, ixtirochilar, ularning patent agentlari bilan aloqa bog'lash uchun ular to'g'risidagi (manzili, telefonlari va h.k.) foydali axborotlarni ham o'z ichiga oladi. Bu litsenzia shartnomalari tuzish, patentlangan mahsulotni sotish yoki sotib olish, hamkorlikda ilmiy tadqiqot ishlari yoki inovatsiya loyihamalarini bajarish uchun zarur bo'lgan amaliy aloqalarni tezda o'rnatish imkonini beradi.

Patent axborotini talabnomaga berilgan va sanoat mulki obyektlari (ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari) sifatida tan olingan turli texnik yechimlari va ishlanmalar to'g'risidagi, shuningdek patentlar va ushbu mulkka tegishli subektlarning huquqiy maqomi to'g'risidagi axborot deb atash mumkin.

Tuzilishi jihatidan patent axboroti shartli ravishda quyidagi axborot resurslariga bo'linadi.

1. Patent hujjatlari, u o'z ichiga rasmiy chop etilgan patent olish uchun berilgan talabnomalar yoki patent berilgan ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalarining tavsiflari, shuningdek ro'yxatga olingan tovar belgilari to'g'risidagi ma'lumotlarni oladi. Qayd etib o'tamizki, ko'p mamlakatlarda patent olishga berilgan talabnomalar Patent idoralari o'tkazadigan va talabnomaga berilgan ixtiroga qarshi bo'lgan bir qator materiallarni o'z ichiga oladigan patent qidiruv to'g'risidagi hisobotlar bilan birga nashr etiladi.

2. Patentga bog'liq adabiyotlar, u dastlabki patent hujjatlari: referatlar, annotatsiyalar, formula bandlarini tahliliy sintetik qayta ishlash natijasidagi turli materiallardan iborat bo'ladi. Bunday materiallar odatda, tarkibidagi axborotning xarakteri va maqsadiga ko'ra ixtisoslashgan turli referativ yoki obzorlarda chop etiladi.

Patent axborotining texnik va tijorat axborot manbai sifatida yuqorida sanab o'tilgan afzalliklariga patent hujjatlarining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari tufayli erishiladi:

1. Barcha patent hujjatlari bir xil tuzilishga ega.

Har bir ixtiro tavsifida ixtirodan oldingi texnika darajasi ohib beriladi va ixtironing ushbu texnika darajasiga qo'shgan hissasi (uning yangiligi) ajratib ko'rsatiladi. Bu patent hujjatidan foydalanuvchiga boshqa ilmiy-texnik adabiyotlarni o'rganmasdan turib ham ixtironi tahlil qilish imkonini beradi, shuningdek shu sohaning texnologik rivojlanish tarixini ohib beradi.

2. Patent hujjatlari faqat g'oyaning o'zini ohib beribgina qolmay, balki, odatda uni sanoatda amaliy qo'llanish imkoniyati to'g'risidagi mufassal axborot (muayyan misollar)ni beradi. Aksariyat hollarda patent hujjatlari boshqa adabiyotlarda chop etilmaydigan axborotlarni beradi. Masalan, Amerika mutaxassislarining baholashicha, AQSH patentlarida ohib berilgan texnologiyalarning kamida 70 % patent adabiyotlaridan boshqa adabiyotlarida ohib berilmagan.

3. Patent hujjatlari tasnif ramzlariga ega bo'lib, ular patent hujjatlarini ularning mazmuni qaysi texnika sohasiga tegishli bo'lsa, shu sohaga muvofiq tasniflash imkonini beradi. Bu esa axborot qidiruvini osonlashtirish uchun patent axboroti massivlariga ishlov berish va tizimlashtirish imkonini beradi.

4. Barcha patent hujjatlari bibliografik ma'lumotlar bilan ta'minlanadi, ular huquqiy ma'lumotlar, masalan, patent berilgan sana, ixtironing ustuvorlik sanasi, talabnama beruvchi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqalar keltiriladi. Patent hujjatlarini qidirish va ishlov berishni yengillashtirish uchun bibliografiya umumqa'bul qilingan maxsus kodlar bo'yicha tizimlashtiriladi.

5. Patentlar tarkibida referat bo'lib, u axborot qidiruvini tezda, ixtiro tavsifi va formulasiga faqat zaruriyat tug'ilgandagina bevosita murojaat qilgan holda, amalga oshirish imkonini beradi.

6. Tasnif ramzlarining mavjudligi va bibliografik ma'lumotlarning kodlanishi avtomatlashtirilgan ma'lumot-axborot tizimlari ma'lumotlar bazalarini yaratish ikonini beradi, ulardan axborot tadqiqotlari o'tkazishdan keng foydalaniladi.

Axborot qidirushi texnikaning u yoki bu sohasi rivojlangan boshqa mamlakatlar bo'yicha ham o'tkazilishi mumkin. O'zbekiston patentini olish

uchun talabnomalar beruvchilar albatta O‘zbekiston Patent hujjatlari bo‘yicha axborot qidiruvi o‘tkazishlari shart. Patent axboroti qidiruvini olib borish avvalo mamlakati qidiruvining vazifasidan kelib chiqib tanlanishi kerak. Masalan, ixtironi Avstralaliyada patentlash mo‘ljallanayotgan bo‘lsa, axborot qidiruvi o‘z ichiga Avstraliya patent hujjatlarini olishi zarur.

Patent hujjatlarining muayyan turlari ixtiro tavsiflarida BIMT ning St 16 standarti bo‘yicha harfiy raqamli kodlar bilan belgilanadi. O‘zbekistonning bosh patent fondi Davlat patent kutubxonasi (Toshkent sh.) hisoblanadi. Bu fondda jahonning 57 dan ortiq mamlakatidan to‘plangan ixtirolarning tavsiflari va patent byulletenlari saqlanadi.

Bugungi kunda eng to‘liq va foydalanish uchun qulay ma’lumotlar bazalari quyidagilardan iborat:

XALQARO TASHKILOTLAR.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WO)<http://www.wipo.int/>

Yevropa patent tashkiloti. (EP)<http://www.espacenet.com/>

YevroOsiyo patent tashkiloti (EA)<http://www.eapo.org/index.htm>

Hududdiy tashkilotlar.

Afrika hududlaro sanoat mulki tashkiloti (ARIPO) <http://www.aripo.wipo.net/>

Afrika intellektual mulk tashkiloti. (OAPI) <http://www.oapi.wipo.net/>

| <i>Mamlakatlar kodlari</i> | <i>Mamlakatlar</i> | <i>URL</i> |
|----------------------------|--------------------|---|
| AT | Avstriya | http://www.patent.bmwa.gv.at/ |
| AU | Avustraliya | http://www.ipaustralia.gov.au/ |
| BX | Benilyuks | http://www.bmb-bbm.org/ |
| CA | Kanada | http://www.opic.gc.ca/ |
| CH | Shveytsariya | http://www.ige.ch/ |
| CN | Xitoy | http://www.cpo.cn.net/ |
| DE | Germaniya | http://www.deutshces- |

| | | |
|-----------|----------------------------|--|
| | | patentamt.de/ |
| FR | Fransiya | http://www.inpi.fr/ |
| GB | Angliya | Patent.gov.uk/ http://www.inellectualproperty.gov.uk/ |
| IT | Italiya | http://www.european-patent-office.org/it/ |
| JP | Yaponiya | http://www.jpo-miti.go.jp/ |
| KR | Koreya Respublikasi | http://www.kipo.go.kr/ |
| RU | Rossiya | http://www.rupto.ru/ http://www.fips.ru |
| US | AQSH | http://www.uspto.gov/ |
| UZ | O‘zbekiston | http://www.ima.uz |

Xalqaro patent tasnifi. Patent hujjatlari bibliografiyasি

Xalqaro patent tasnifining maqsadi axborotni tezda qidirib topish va ishlov berish imkoniyatini ta’minlash uchun patent hujjatlarini tartiblashtirish (tartibga solish) tizimini yaratishdan iborat. Qabul qilingan tasnifflash tizimi asosida patent fondlarida patent hujjatlari indeksatsiyalanadi va joy-joyiga qo‘yiladi, ma’lumotlar bazalarida axborot qidiriladi va hokazo.

XPT tashkil etish tarixi 1951 yilda, Yevropa patent ishlari bo‘yicha kengashi tomonidan Patent tasnifi bo‘yicha kichik komitet tashkil etilgan vaqtдан boshlangan. Bu komitet, bir qator Yevropa davlatlari o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq, o‘sha vaqtida qo‘llanilayotgan ixtirolarni tasniflashning turli milliy tizimlarini unifikatsiyalashtirish ishlarini boshlagan.

1954 yilda XPTning aosiy sxemasi tuzildi. 1966 yilda XPTning kichik gruxlargacha bo‘lgan aniqlikdagi ishlanmasi (to‘liq chizmasi) ni ishlab chiqish ishlari tugallandi va u 1968 yilning 1 sentabridan boshlab kuchga kirdi. 1971 yilda Xalqaro patent tasnifi bo‘yicha Strasburg bitimi tuzildi. Ushbu bitimning ishtirokchilari faqat 29 davlatdan iborat bo‘lsa ham, aslida jahonning 70 dan ortiq mamlakatidagi Patent idoralari, shuningdek mintaqaviy patent idorasi ham XPTdan foydalanadi. XPTni doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqish va uning zamon talablari darajasida bo‘lishini ta’minlash uchun Strasburg bitimiga

muvofiq Ekspertlar komiteti ta'sis etilgan bo'lib, bitimning ishtirokchi davlatlar vakillari uning a'zolaridir. XPT muntazam ravishda har besh yilda bir marta qayta ko'rib chikiladi 2000 yilning 1 yanvaridan boshlab XPTning yettinchi tahriri amal qilmoqda.

XPT bo'yicha asosiy nashr bu sinflar ko'rsatkichi bo'lib, har biri lotin alifbosining bosh harflari bilan belgilanadigan 8 ta bo'limdan iborat:

- A – Insonning hayotiy ehtiyojlarini qondirish;
- B – Turli texnologik jarayonlar;
- S – Kimyo va metallurgiya;
- D – To'qimachilik va qog'oz;
- YE – Kurilish;
- F – Amaliy texnika; yoritish va isitish; dvigatellar va nasoslar; qurol va o'q dorilar;
- G – Texnik fizika;
- H – Elektr.

XPTning har bir bo'limi sinflarga bo'linadi. Sinf ramziy ifodasiga bo'lim indeksi va ikkita raqam kiradi. Har bir sinf shuningdek o'z nomiga ega. Misol, A – Insonning hayotiy ehtiyojlarini qondirish bo'limi o'z ichiga "A 01 Qishloq xo'jaligi" "A 61 Tibbiyot" va hokazo sinflarni oladi.

O'z navbatida sinflar kichik sinflarga bo'linadi, ularning ramziy ifodasiga lotin harfi bilan belgilanadigan bo'lim nomi, ikki xonali sondan iborat sinf belgisi va kichik sinfni bildiruvchi lotin harflari kiradi. Misol, "A 01 Qishloq xo'jaligi" sinfi "A 01 D Hosilni yig'ib-terib olish, o'rim,..." va hokazo kichik sinflardan iborat.

Kichik sinflar o'z ichiga guruhlarni oladi. Guruhlarning ramziy belgisiga bo'lim indeksi, sinf, kichik sinf belgisidan tashqari bitta, ikkita yoki uchta raqamdan iborat ifoda kiradi, bu raqamli ifodadan keyin qiya chiziq va ikkita nol qo'yiladi. Misol, "A 01 D 46/00 Mevalar, sabzavotlar, xmel va hokazolarni yig'ishtirib olish, daraxt va butalarni silkitish qurilmasi".

Har bir XPT guruhi bittadan bir nechtagacha kichik guruhlaraga ega bo‘lishi mumkin. Misol: “A 01 D 46/08 Paxta terimi” va hokazo.

1 –topshiriq: “Savollar tuzing” metodidan foydalanish.

“Savollar tuzing” metodi.

Ushbu uslub uch bosqichda amalga oshiriladi. Uni ko‘proq amaliy, seminar mashg‘ulotlarida qo‘llash yaxshi samara beradi. Ma’ruza mashg‘ulotlarida mavzu bo‘yicha uy vazifasi sifatida ham berish mumkin.

1-bosqich. O‘qituvchi mavzu bo‘yicha har bir tinglovchiga 5 tadan savol tuzish topshirig‘ini beradi hamda har bir tinglovchidan o‘zi tuzgan savolni o‘zidan so‘rashini ta’kidlaydi. Tinglovchi o‘z tuzgan savoliga o‘zi javob berishini e’tiborga olgan holda, osonroq savol tuzishga harakat qiladi va buning uchun mavzuni bir necha marta o‘qib chiqadi (oson savol tuzish ham oson emas!). Natijada mavzuni ma’lum darajada o‘zlashtirib oladi.

2-bosqich. Topshiriq biroz murakkablashtiriladi, ya’ni o‘qituvchi bir talaba tuzgan savolni boshqa tinglovchidan so‘rashini aytadi. Bunda tinglovchilar juftligi, ya’ni kimning savoli kimdan so‘ralishi aniq ko‘rsatiladi. Tinglovchi o‘zi tuzgan besh savol javobini bilgan holda, ikkinchi tinglovchi tuzgan besh savol javobini ham bilib oladi, bir mavzu bo‘yicha har bir tinglovchi¹⁰ ta savol javobini o‘rganadi.

3-bosqich. Tinglovchi tomonidan tuzilgan savollarning eng yaxshilari guruh ishtirokida muhokama tarzida tanlab olinadi va javobi so‘raladi. Tinglovchilarning faolligini oshirish maqsadida ular rag‘batlantirilib boriladi.

Tinglovchilarga amaliy mashg‘ulotda berilgan nazariy materiallar mazmunidan kelib chiqib 5tadan savol tuzishi va ularga o‘zlari javob berilish aytiladi. Keyin esa ya’na 5tadan savol tuzishi va boshqa tinglovchilar shu savolga javob berilishi kerakligi tushuntiriladi. Savol tuzib bo‘lganidan keyin xar bir tinglovchi o‘zlari tuzgan savollarga javob beradi va boshqa tinglovchilar tuzgan savollariga xam javob beradi. Shu tariqqa amaliy mashg‘ulot amalga oshiriladi.

2 –topshiriq: tinglovchilarni kichik guruhlarga ajratish va qo‘yidagi vazifani

berish: Tinglovchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan plakatda Tuzilishi jihatidan patent axboroti resurslariga bo‘lishini chizish va taqdimot qilish.

3-topshiriq: Tinglovchilarga yakka tartibda ma’lumotlar bazasini topish vazifasi beriladi

1. Xalqaro tashkilotlar.

1. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti -
2. Yevropa patent tashkiloti-
3. YevroOsiyo patent tashkiloti -

2.Hududdiy tashkilotlar.

1. Afrika hududlaro sanoat mulki tashkiloti-
2. Afrika intellektual mulk tashkiloti-

3.Milliy boshqarmalar.

| <i>Mamlakatlar kodlari</i> | <i>Mamlakatlar</i> | <i>URL</i> |
|----------------------------|---------------------|------------|
| AT | Avstriya | |
| AU | Avstraliya | |
| BX | Benilyuks | |
| CA | Kanada | |
| CH | Shveytsariya | |
| CN | Xitoy | |
| DE | Germaniya | |
| FR | Fransiya | |
| GB | Angliya | |
| IT | Italiya | |
| JP | Yaponiya | |
| KR | Koreya Respublikasi | |
| RU | Rossiya | |
| US | AQSH | |
| UZ | O‘zbekiston | |

Nazorat savollari.

1. Patent axboroti nima, hozirgi zamonda patent axborotining ahamiyatini ko‘rsatib bering?
2. Patent axboroti shartli ravishda qanday axborot resurslariga bo‘linadi?
3. Patent hujjatlarining asosiy xususiyatlarini ko‘rsating.
4. Patent hujjatlarining qanday turlari mavjud?
5. Patent byulletenlarida qanday axborot chop etiladi?
6. Patent axborotiga ishlov berish va saqlash uchun qanday axborot eltuvchilardan foydalaniladi?
7. Xalqaro patent klasifikatsiyasi (XPK) nima uchun zarur?
8. XPK qanday bo‘limlardan iborat, uning tuzilishini ko‘rsating?
9. XPK ruknlari matni qanday tuziladi?

V. GLOSSARY

Intellekt – insonni hayvonat dunyosidan ajratib turadigan asosiy belgi bo‘lib rivojlanishni sifat jihatidan yangi pog‘onaga ko‘taradi. Intellekt so‘zi lotincha intellectus so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, inson aqli, ongi, fikrlash qobiliyatini bildiradi. Inson hayotining maqsadi – eng yaxshi narsalarga intilishdir.

Sanoat mulki, mualliflik huquqidan farqli ravishda bevosita g‘oyani, xususan buyumning turli shakllarda ko‘p marta qayta ishlatilishi mumkin bo‘lgan texnik, badiy va boshqa mohiyatlarni muhofaza qiladi.

Intellektual multk huquqi yoki intellektual multk fuqarolik huquqining kichik sohasidir.

Patent huquqi. U dastlab feodalizmning so‘ngi davrlarida feudal jamiyat negizida xo‘jalik yuritishning kapitalistik usuli vujudga kelib, rivojlana boshlashi bilan yuzaga keldi. Patent huquqi – ishlab chiqarishning kapitalistik usuli ustun kelishi va xokimiyatning burjuaziya qo‘liga o‘tishi natijasida shakllandi.

Ixtiroga patent – ixtironing ustuvorlik sanasidan boshlab yigirma yil mobaynida amal qiladi, mohiyati bo‘yicha ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi;

Ixtiroga dastlabki patent (2002 yil oktabr oyigacha) – dastlabki ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi va ustuvorlik sanasidan boshlab besh yil mobaynida amal qiladi. Talabnama beruvchining mohiyati bo‘yicha ekspertiza o‘tkazish to‘g‘risidagi iltimosiga ko‘ra patentga aylantirilishi mumkin;

Sanoat namunasiga patent – mohiyati bo‘yicha ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi va ustuvorlik sanasidan boshlab 10 yil mobaynida amal qiladi, patent egasining iltimosi bilan amal qilish muddatini yana besh yilga uzaytirish imkoniyatini saqlab qoladi;

Sanoat namunasiga dastlabki patent (2002 yil oktabr oyigacha) – Dastlabki ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi va ustuvorlik sanasidan

boshlab besh yil mobaynida amal qiladi. Dastlabki patent egasi iltimosiga ko‘ra patentga aylantirilishi mumkin.

Foydali modelga patent – dastlabki ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi va ustuvorlik sanasidan boshlab besh yil mobaynida amal qiladi va talabnama beruvchining iltimosiga ko‘ra yana uch yilga uzaytirilishi mumkin.

Tovar belgisiga guvohnoma - ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi va ustuvorlik sanasidan boshlab 10 yil mobaynida amal qiladi va har safar 10 yilga uzaytirish imkoniyatini saqlab qoladi.

Kashfiyat deb bilim darajasiga tubdan o‘zgartirish olib kiradigan ilgari nomalum bo‘lgan ammo obyektiv mavjud bo‘lgan moddiy dunyoning hodisa, xossa va qonuniyatlarini tushuntirib beruvchi ta’limotga aytildi.

Patent so‘zi lotincha patentis so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, ochiq, aniq degan ma’noni bildiradi.

Qurilma. Qurilmalarga, konstruksiyalar, konstruktiv elementlar yoki ularning funksional konstruktiv birlikda bo‘lgan majmuidan iborat buyumlar kiradi.

Usul. Usullarga moddiy obyekt (qurilma, muhit, elektr zaryadi, magnit maydoni va boshqalar) ustida moddiy obyektlar yordamida o‘zaro bog‘liq harakatlarni bajarish jarayonlari kiradi.

Modda. Ixtiro turi sifatida moddalarga: individual kimyoviy birikmalar, bularga shartli ravishda yuqori molekulyar birikmalar va gen muxandisligi obyektlari kiritilgan; kompozitsiyalar (aralashmalar, qotishmalar, eritmalar va boshqalar);

Talabnama tili. Patent berish to‘g‘risidagi ariza o‘zbek yoki rus tilida beriladi. Talabnama milliy talabnama beruvchilar yoki MDH talabnama beruvchilari tomonidan berilsa, arizada ko‘rsatilgan ixtiro nomi o‘zbek va rus tillarida berilishi lozim.

Nusxalar soni. Talabnomaning yuqorida ko‘rsatilgan o‘zbek yoki rus tilida tuzilgan hujjatlari uch nusxada beriladi.

O'simlik navi nasldan-naslga barqaror ravishda o'tadigan belgilari bilan ajralib turadigan o'simliklar guruhidir.

Hayvonlar zoti deb genetik jihatdan belgilangan biologik va morfologik xususiyatlar hamda belgilarga ega bo'lgan hayvonlar (shu jumladan qushlar, hashoratlar, tut ipak qurti) yoki ularning duragaylari tan olinadi, bunda bu xususiyat va belgilarning ba'zilari aynan shu guruh uchungina xos bo'lishi va uni boshqa guruh hayvonlaridan ajratib turish zarur.

Tovar belgisidan foydalanish sharti. Tovar belgisi qaysi tovar uchun ro'yxatga olingan bo'lsa, uning shu tovarlarda, ularni joylash buyumlarida, reklamada, bosma nashrlarda, rasmiy blankalarda, ko'rgazma va yarmarkalarda eksponatlarni namoyish qilishda qo'llanishi tovar belgisidan foydalanishga kiradi.

Yuridik shaxs – tovar belgisi egasi bo'linib ketadigan hollarda tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish qaysi shaxsga o'tsa, tovar belgisi ham shu shaxsga o'tadi.

Litsenziya - litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so'zsiz rioya etilgani holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnomalar (huquq);

Faoliyatning litsenziyalanayotgan turi - O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi uchun litsenziya olish talab qilinadigan faoliyat turi;

Litsenziya talablari va shartlari - faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirayotganda litsenziyat tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan, qonun hujjalarda belgilangan talablar va shartlarning majmui;

Litsenziyalovchi organlar - qonun hujjalariga muvofiq litsenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar;

Litsenziya da'vegori - litsenziyalovchi organga faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziya berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Litsenziat - faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish litsenziyasi bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Litsenziya shartnomasi - faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziyatning litsenziya olishi va undan foydalanishi borasidagi litsenziyalovchi organ bilan litsenziya da’vogari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan va ular o‘rtasida tuziladigan shartnoma;

Litsenziyalar reyestri - berilgan, to‘xtatib turilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan litsenziyalar, shuningdek amal qilishi tugatilgan litsenziyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan litsenziyalovchi organlarning ma’lumotlar bazalari majmui.

Litsenziyalash sohasini davlat tomonidan tartibga solish. Litsenziyalash sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda litsenziyalovchi organlar amalga oshiradi.

Litsenziyalarning turlari - Litsenziyalar namunaviy (oddiy) va yakka tartibdagi bo‘lishi mumkin.

Litsenziyaning amal qilish muddati - litsenziyaning amal qilish muddati, qoida tariqasida, cheklanmaydi.

Litsenziyalarni rasmiylashtirish - itsenziyalar tegishli blanklarda rasmiylashtiriladi.

Litsenziya shartnomasi - litsenziyalovchi organ va litsenziyatning o‘zaro huquqlari va majburiyatlarini belgilovchi hujjatdir.

Litsenziyani bekor qilish - Litsenziya quyidagi hollarda bekor qilinadi:
ushbu Qonun 16-moddasining to‘qqizinch qismida nazarda tutilgan holda;
litsenziyat litsenziyani bekor qilish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilganda;
litsenziya soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi fakti aniqlanganda.

Litsenziyalarning reyestrlari - litsenziyalovchi organlar o‘zlari litsenziyalashni amalga oshirayotgan faoliyatning har bir turi uchun alohida litsenziyalar reyestrlarini yuritadilar.

VII. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasining 25.05.2000 y. 71-II-son Qonuni.
2. Djumaxodjayev A. Patentshunoslik. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. Toshkent. Mehnat. 2001. 384 b.
3. Turg‘unboyev A., To‘rayev Sh.A. «Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlashtirish» Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, ToshDTU, 2015. 280 b.
4. G. M. S. de Silva., Basic Metrology for ISO 9000 Certification (1st Editio). Ships from and sold by Amazon.com. Gift-wrap available. 2015.
5. Andy Eadie. Global Certifications for Makers & Hardware Startups: Find the regulatory path to legally bring your product to market in the US (FCC), Europe (CE) and beyond., Kanada: 2015.
6. Tolok I.Y., Tolok T.V. Zashita intellektualnoy sobstvennosti i patentovedeniye. Uchebnoye posobiye. Kazan. Nats. Issled. Texnol. Un-t. 2017. S.331.
7. Alekseyev G.V., Borovkov M.I., Dmitrichenko I.M. Osnovi zashiti intellektualnoy sobstvennosti: uchebnoye posobiye dlya VUZov.-SPb.: ITS «Intermediya», 2016.-264s.
8. Turg‘unboyev A. Ixtiroga tavsifnomasi yozish uchun uslubiy qo‘llanma. TDTU. Toshkent. 2012. 76 b.
9. Borshev V.Y. Zashita intellektualnoy sobstvennosti: uchebnoye posobiye. – Tambov: Izd-vo FGBOU VPO “TGTU”, 2016,-81s.
10. Larionov I.K., Gureyeva M.A. Zashita intellektualnoy sobstvennosti [Elekronniy resurs]: uchebnik dlya bakalavrov.-M.: Dashkov i K, 2017 – 216s.
11. “How to get a European patent”/Guide for applicants.–Munich, ERO,2016.

INTERNET SAYTLARI

1. <http://www.gov.uz> –O‘zR Hukumatining rasmiy sayti.

2. <http://www.lex.uz> – O‘zR qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
3. <http://edu.uz> –O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
4. <http://www.ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyoNET
5. <http://www.window.edu.ru> – Butun Rossiya ta’lim portali.
6. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
7. <http://www.fips.ru>
8. <http://ipdl.wipo.int>
9. <http://www.ima.uz>
10. <http://www.kpms.ru>